

# POSTDA



Gazeta 1930-yil 12-maydan  
chiqa boshlagan

НА ПОСТУ ★ AT THE POST

O'zbekiston Respublikasi  
Ichki ishlar vazirligi nashri

## Hafta qahramoni



**YOSH BO'LSA HAM,  
BOSH BO'LIB**

Vobkent tumani IIB JXX HPB profilaktika inspektori, mayor Amrillo Rasulov xizmat olib borayotgan «Kulolchi» mahalla fuqarolar yig'ini o'tgan ikki yil davomida «yashil» toifaga kiritilgan.

– Profilaktika inspektorimiz yosh bo'lishiga qaramay, mahalladoshlar bilan ahillikda xizmat olib bormoqda. Bizda ishsizlar deyarli yo'q, aholining aksariyati hunarmandchilik bilan shug'ullanadi. Korxona va tashkilotlarda ishlaydiganlari ham bo'sh paytlari tandir yasashadi. Shu bois mahallamiz farovon, jinoyat va huquqbuzarlik holatiga chek qo'yilgan, – deydi mahalla xotin-qizlar faoli Qunduz G'aniyeva.

Buxoro davlat universitetini tugatgan A. Rasulov 2020-yildan beri ichki ishlar organlarida xizmat qilib kelmoqda. Dastlab qo'shni Navoiy viloyatining Qiziltepa tumani IIBda profilaktika inspektori lavozimida xizmat qilgan bo'lsa, 2024-yildan buyon egallab turgan lavozimida faoliyat yuritmoqda.

(Davomi 18-betda.)

## Islohotlar samarasi



## XAVFSIZ HAYOT GAROVI

Davlatimiz rahbarining Toshkent shahar IIBB huzuridagi Qo'riqlash xizmatiga tashrifi, sohadagi tub islohotlar va raqamli texnologiyalarning tatbiq etilishi bilan yaqindan tanishgani sohani to'liq raqamlashtirish hamda «Xavfsiz shahar» konsepsiyasini yangi bosqichga olib chiqishda muhim qadam bo'ldi.

Prezidentimizga namoyish etilgan yangiliklar sohaning kelajagini belgilab berdi. Endilikda ushbu xizmatdagi axborot tahlil va monitoring markazi orqali minglab xonadonlar va davlat obyektlari zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida qo'riqlanmoqda.

(Davomi 2-betda.)



# XAVFSIZ HAYOT GAROVI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

– Tizimda inson omili kamaytirilib, tezkorlik yuksak darajaga ko'tarildi, – deydi Toshkent shahar IIBB huzuridagi Qo'riqlash xizmati boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik Muzaffar Tilapov. – Xodimlarimiz avallari ma'nan eskirgan uskunalar orqali xizmat olib borishardi. Bu esa huquqbuzarlik va jinoyatlarni aniqlashda birmuncha qiyinchliklarni yuzaga keltirardi. Keyingi yillarda Prezidentimizning sohaga qaratayotgan alohida e'tibori tufayli zamonaviy texnika va texnologiyalar asosida ishlar tashkil qilinmoqda. Agar ilgari bunday zamonaviy texnikalar asosan xorijdan qimmat narxlarda olib kelingan bo'lsa, bugungi kunda ular o'zimizda mahalliyashtirilib, ancha arzon narxlarda ishlab chiqarilmoqda.

Hozir tizim to'liq raqamlashtirilgan bo'lib, har bir xabar onlayn qayd etiladi. «Tashvish» xabari avtomatik

Tizim nafaqat o'g'rilik, balki yong'in yoki suv toshishi kabi holatlarni ham masofadan aniqlab, monitoring markaziga xabar beradi.

Misol uchun oladigan bo'lsak, joriy yil 10-yanvar kuni soat 05:38 da Mirobod tumanidagi do'konlardan biridan «tashvish» xabari keladi. Tezkor harakatlanuvchi guruh atigi 5 daqiqada yetib borib, pichoq bilan qurollangan 1979-yilda tug'ilgan shaxsni qo'lga oladi.

Xodimlar nafaqat «tashvish tugmasi» orqali voqea joyiga yo'naltiriladi, balki ular o'zlariga birlashtirilgan hudud bo'ylab xizmat olib boradi va shubhali ko'ringan har qanday holatni bee'tibor qoldirishmaydi. Xususan, 10-yanvar kuni bir jinoyat «issiq izida» fosh etildi. Ya'ni, soat 18:20 larda Bektemir tumani IIOFMB huzuridagi Qo'riqlash xizmati THG xodimlari o'z yo'nalishlari bo'yicha xizmat o'tab yurgan vaqtida, ko'chada shubhali harakat qilayotgan fuqaroni

**Yanvar oyining o'zidayoq 1750 dan ortiq chaqiruv qabul qilingan. Shundan 330 dan ortig'ida huquqbuzarlik (janjal va tartibbuzarlik)larning oldi olingan. Shuningdek, 2 ta o'g'rilik jinoyati fosh etilgan, 3 nafar qidiruvdagi shaxs ushlangan va 1 nafar fuqaroning o'z joniga qasd qilish harakati to'xtatib qolingan.**

Fuqaro o'z xonadoni yoxud tadbirkorlik subyektiga tegishli obyektni qo'riqlash xizmatiga topshirish uchun ushbu qisqa raqam orqali yoki hududiy qo'riqlash xizmatiga murojaat qiladi. Murojaat asosida hududiy qo'riqlash xizmati xodimlari obyektni o'rganib chiqadi hamda tegishli arizani rasmiylashtiradi. Ariza asosida qo'riqlash xizmati xodimlari tomonidan zamonaviy qo'riqlash texnik vositalari bepul o'rnatilib, tizimga ulanadi.

Xonadon yoki tadbirkorlik subyektiga o'rnatilgan qo'riqlash vositalaridan tashvish tugmasi bosilganda, shuningdek, magnit-kontakt datchiklari yoki harakat datchiklaridan signal kelib tushganda, tizim

avtomatik ravishda xabarni qabul qiladi va uni monitoring markaziga uzatadi. Ushbu xabar asosida monitoring markazi xodimi voqea joyiga tezkor harakatlanuvchi guruhni yo'naltiradi. Tezkor harakatlanuvchi guruh planshetiga tashvish signali va geojoylashuv ma'lumotlari kelib tushadi hamda navigatsiya orqali eng qisqa yo'nalish bo'yicha voqea joyiga yetib boriladi.

Bunda monitoring markazi tezkor harakatlanuvchi guruh ekipajini salon va tashqi zamonaviy videoregistratorlar, shuningdek, bodikamera orqali real vaqt rejimida kuzatib turadi. Zarurat tug'ilganda, vaziyatga to'g'ri baho berilib, qo'shimcha kuch va vositalarni zudlik bilan yuborish imkoniyati mavjud.

Sohaning to'liq raqamlashtirilgani va inson omilining kamaytirilgani «Xavfsiz shahar» konsepsiyasini amaldagi voqelikka aylantirdi. Yangi davrning zamonaviy texnologiyalari esa ana shu osoyishta hayotning eng mustahkam va ishonchli garovi bo'lib xizmat qilaveradi.

**Sarvar SOBIROV,**  
o'z muxbirimiz.

**Abu KENJAYEV** olgan suratlar.

Toshkent shahri.



tarzda eng yaqin ekipajning planshetiga yo'naltiriladi. Bu soniyalar ichida qaror qabul qilish imkonini beradi. Yangi zamonaviy integrallashgan tizim avvalgilardan farqli o'laroq, har bir inson o'z smartfonidagi mobil ilova orqali uyini nazorat qilishi yoki xavf tug'ilganda, birgina tugmani bosib yordam chaqirishi mumkin.

to'xtatishadi. Tekshiruv natijasida muqaddam sudlangan T.J. ismli shaxs yonidan 19 dona paketga joylangan giyohvandlik moddalari topilgan.

Bugun qo'riqlash xizmatidan foydalanish har qachongidan ham qulay. Ya'ni, «1131» qisqa raqamiga qo'ng'iroq qilishining o'zi kifoya.



## Ustoz-shogird

# TAJRIBA VA SHIJOAT UYG'UNLASHGANDA

Farg'ona viloyati IIB JXX Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasida yosh xodimlarni Vatanga muhabbat, kasbga sadoqat va xizmat intizomiga itoat ruhida tarbiyalashda boshqarma Faxriylar kengashi raisi, iste'fodagi podpolkovnik Abduvahob Mirzaqulovning jonsarakligi e'tirof etishga arziydi. U 30 yilga yaqin faoliyatini yo'l harakati xavfsizligi tizimiga baxshida etib, boy amaliy tajriba to'plagan. Oddiy inspektorlikdan boshqarma boshlig'igacha bo'lgan sharaflari yo'lni bosib o'tgan.



Shogirdlar ehtiromida pensiyaga chiqqan ustozning kasbini o'g'li, leytenant Sardorbek Mirzaqulov munosib davom ettirmoqda. U ayni paytda Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi navbatchilik qismida faoliyat ko'rsatyapti.

Abduvahob Mirzaqulovning tashabbusi bilan sohada yangi ish boshlagan yosh xodimlarga faxriylardan murabbiylar biriktirilgan. Yoshlar va ustoz-murabbiylar ishtirokida tez-tez uch avlod uchrashuvlari, suhbat va muloqotlar o'tkazib kelinadi. Masalan, Vatan himoyachilari kuni arafasida ham tizimda ishlayotgan yoshlar bilan ana shunday uchrashuv bo'lib o'tdi.

– Bugungi shiddatli zamonda har bir yosh xodim muntazam o'qib, izlanishi kerak, – deydi u. – Ayniqsa, siyosiy va huquqiy adabiyotlarni o'qib, qonunchilikdagi yangilikdan boxabar bo'lib tursa, fuqarolarga huquqiy maslahatlarini ayamadi. Birov savol bersa, ikkilanib qolmaydi. Shu bois men shogirdlarimga kitob va gazeta o'qishni maslahat berishdan erinmayman.

Bundan tashqari, iste'fodagi podpolkovnik Abduvahob Mirzaqulov viloyat IIB hamda Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi rahbariyati bilan hamkorlikda bemor yotgan va boquvchisini yo'qotgan faxriylarning

holidan muntazam ravishda xabar olib turibdi.

Masalan, yaqinda shu tizimga mehnati singgan, Marg'ilon shahrida istiqomat qiluvchi, 90 yoshli iste'fodagi mayor Orifjon Botirov, Qo'qon shahar IIB YHXB boshlig'i lavozimida ishlagan, II guruh nogironi, 70 yoshli Muhammadjon Qo'ldoshev, O'zbekiston tumani va Qo'qon shahar IIB YHXB katta inspektori lavozimida xizmat qilgan, 72 yoshli Anvarjon Jo'raqulovlarning xonadoniga borib, ularning holidan xabar olishdi. Ehtiromdan boshi osmonga yetgan faxriylar kengash a'zolariga minnatdorlik bildirish barobarida, yosh xodimlarga o'zlarning qimmatli maslahatlarini berishdi.

– Ustozlar tajribasi biz yoshlar uchun juda katta ma'naviy boylik sanaladi, ularni imkon qadar o'rganishga harakat qilyapmiz, – deydi katta leytenant Dostonbek Bozorov.

**Abduvosit SIDIQOV,**  
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

## Halollikni shior qilgan xodimlar

### BURCHGA SADOQAT

Xo'jaobod tumani IIB huzuridagi Qo'riqlash xizmati xodimi, katta leytenant Hayotbek G'aniyev o'z xizmat burchi va fuqarolarga nisbatan adolat tamoyillarini birinchi o'ringa qo'yib, zimmasidagi vazifani bajarish jarayonida qonunbuzarlikning oldini olishda shaxsiy namuna ko'rsatdi.



Suratda: katta leytenant H. G'aniyev otasi bilan.

U fuqaro tomonidan o'ziga nisbatan rasmiylashtirilgan hujjatlarni sud organlariga yubormaslik evaziga pora sifatida taklif qilingan pulni olmay, bu haqda rahbariyatga xabar berdi. Holat yuzasidan o'tkazilgan tezkor tadbir davomida pora bermoqchi bo'lgan fuqaro ashyoviy dalillar bilan qo'lga olindi.

Bunday xizmat namunasi na-faqat xodimning oliy ma'naviy fazilatlarini ko'rsatadi, balki ichki ishlar organlari xodim-

lari orasida halollik va kor-rupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni yanada mustahkamlaydi. Har bir xodim uchun bu namuna sifatida namoyon bo'lishi lozim.

Haqiqatan ham, burchga va xizmatga sadoqat bu faqat ko'rsatkich emas, balki har bir xodimning yuragidagi ishonch va Vatanga muhabbatdir.

**Saminjon HUSANZODA,**  
o'z muxbirimiz.  
Andijon viloyati.

## Probatsiya xizmati

### «SEN TO'G'RI YO'LGA QAYTA OLASAN»

Namangan shahar IIB JXX Probatsiya bo'linmasi tomonidan olib borilayotgan tadbirlar jinoyat sodir etgan shaxslar uchun yana bir imkoniyat yaratishga va ularni ijobiy xulq-atvorga yo'naltirishga xizmat qilmoqda.

– Hozirgi kunda hisobimizda jami 1 116 nafar nazorat ostidagi shaxs mavjud, – deydi bo'linma boshlig'i, kapitan Dostonbek Abduqahhorov. – Ularning 1 063 nafari erkak, 53 nafari ayol, 29 nafari voyaga yetmagan, 323 nafari yoshlardir.

1116 nafar... Bu katta raqam. Mazkur raqam ortida adashgan taqdirilar, o'ylamay bosilgan qadamlar, so'nimgan orzular bor. Ularning har biri o'z xatosidan xulosa chiqarib, ikkinchi imkoniyatdan foydalanib, jamiyat oldida o'z o'rnini topishi kerak. «Sen to'g'ri yo'lga qayta olasan, biz senga ishonamiz» degim keladi.

Tuzalish yo'lga o'tgan shaxslar bilan manzilli ish olib borish ularda qonunga itoatkorlik va ijobiy xulq-atvorni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Buning uchun nazorat ostidagi shaxslar 3 ta



asosiy toifaga ajratilgan: tuzalish yo'lga o'tganlar, jinoyat sodir etishga moyil shaxslar va jinoyat sodir etish xavfi yuqori bo'lganlar. Bunda har bir shaxsga individual yondashish va profilaktik ishlarni olib borish orqali muvaffaqiyatga erishish mumkin.

– Yaqinda 2-sonli texnikumda o'tkazilgan sayyor sud bu boradagi muhim tadbirlardan biri bo'ldi, – deydi

kapitan Dostonbek. – Unda sud tomonidan qo'yilgan taqiq va cheklavlarga to'liq amal qilgan 20 nafar shaxs muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilindi. Bu, o'z navbatida, insonparvarlik tamoyillari asosida amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini ko'rsatadi.

**Jahongir TO'XTASINOV,**  
o'z muxbirimiz.  
Namangan viloyati.



# BO'Y KO'RSATAYOTGAN «QOZIROBOD»

**Yangi O'zbekistonda mahalla davlat bilan xalqni bog'lovchi eng mustahkam va ishonchli ko'priikka aylandi. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilayotgan islohotlarning bosh mezonini har bir muammoni bevosita mahallaning o'zida, aholiga yaqin bo'lgan birinchi bo'g'inining o'zida hal etishga qaratilgan. Bu tamoyil shunchaki nazariy qarash emas, balki inson qadrini ulug'lashga qaratilgan amaliy harakatlar ifodasidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori ijrosi va «Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili» doirasida IIV ishchi guruhi tomonidan Toshkent shahrining Chilonzor tumanida olib borilayotgan kompleks chora-tadbirlar «mahallabay» ishlash tizimining yangi bosqichga chiqqanini yaqqol isbotlamoqda.**

## «QIZIL»DAN «YASHIL»GA: MUVAFFAQIYAT FORMULASI

«Qozirobod» mahallasining bugungi qiyofasiga boqsangiz, ko'zingiz quvonadi. Ammo bu fayz va tarovat o'z-o'zidan, bir kunda paydo bo'lib qolgani yo'q. Bu – tinimsiz mehnat, izchil islohot va mahalla ahlining birdamligi mevasidir. Hudud «qizil» toifadagi murakkab mahallalardan biri edi. 2025-yilda «sariq» toifaga, joriy yil boshidan esa to'liq «yashil» toifaga o'tdi. Buning zamirida mahalla yettiligi va ishchi guruhning samarali mehnati yotibdi.

– Mahallamizning qiyofasi o'zgardi, ko'chalarimiz ravon bo'ldi, lekin eng muhimi – odamlarning dunyoqarashi va xavfsizlikka bo'lgan ishonchi o'zgardi, – deydi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Abdusamad Mutalov. – Mahalladagi ijtimoiy himoyaga muhtoj har bir oila doimiy diqqat markazimizda. Biz nafaqat ularga moddiy ko'mak beryapmiz, balki ruhiy dalda ham bo'lyapmiz. Masalan, ichkilikka ruju qo'ygan fuqarolarimiz bilan olib borilgan suhbatlar natijasida oilalardagi zo'ravonlik to'xtashiga erishilmoqda. Ota uyiga mast bo'lib emas, balki mehr bilan qaytishi – biz uchun eng katta g'alaba. Odamlar «Mening mahallam – mening qo'rg'onim» degan tuyg'uni his qila boshladi. «Yashil» toifaga o'tganimiz tinchlikni asrash mas'uliyatini yanada oshiradi. Endigi maqsadimiz – bu barqarorlikni mustahkam saqlab qolish.

## IJTIMOY PROFILAKTIKA VA RAQAMLI XAVFSIZLIK

Mahallada jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda zamonaviy texnologiyalar va insoniy yondashuv birlashtirilgan. Xususan, ichkilikka ruju qo'ygan 5 ta xonadon bilan ishlashda nafaqat profilaktik suhbatlar, balki texnik xavfsizlik choralari ham ko'rilgan. Ushbu xonadonlarga «tashvish tugmalari» o'rnatilgani ko'ngilsiz hodisalarning oldini olishda muhim to'siq bo'lmoqda.

– Xavfsizlik – faqatgina ko'chada bexavotir yurish, sog'-omon uyga qaytish emas, – deydi mahalla profilaktika inspektori, podpolkovnik Ziyodulla Meyliyev. – Xavfsizlik, eng avvalo, uydagi tinchlik,

oilaviy xotirjamlikdir. Xususan, keyingi eng katta yangiliklardan biri «Mening inspektorim» mobil ilovasiga ulanish jadal sur'atlarda olib borilmoqda. Bu shunchaki texnik jarayon emas, balki fuqaro va ichki ishlar organi o'rtasidagi ishonchli ko'prikdir. Ilova orqali har bir fuqaro hudud inspektori bilan doimiy onlayn muloqotda bo'lib, muammosini soniyalar ichida yetkazish imkoniga ega.

Tahlillarga nazar tashlasak, mahallaning ilgari «qizil» toifaga kirib qolganiga mahalla ahli emas, balki hududning geografik joylashuvi va tashqi omillar asosiy sabab bo'lgan edi. Xususan, «Bunyodkor» stadioni atrofidagi ulkan avtoturargoh yillar davomida nazoratsiz hudud bo'lib kelgani sir emas. Bu yerda asosiy jinoyatchilik



«o'chog'i» turli viloyatlardan kelib, tungi vaqtlarda avtoturargohda qo'nim topgan shaxsi noma'lum kimsalarning xatti-harakatlari natijasida yuzaga kelardi. Aynan nazoratsiz qolgan ushbu «nuqta» o'g'irlik, talonchilik va tan jaro-hati yetkazish kabi jinoyatlarning markaziga aylanib, mahallaning tinchligiga raxna solardi.

Biroq bugungi kunda vaziyat tubdan o'zgardi. Hududga yuqori aniqlikdagi kuzatuv kameralari va eng zamonaviy «Face ID» (yuzni tanish) tizimlari o'rnatildi. Endilikda nafaqat mahalla fuqarosi, balki tashqaridan kelgan har bir shaxsning qadami raqamli xotiraga muhrlanadi. Ayniqsa, tungi nazoratning keskin kuchaytirilishi va avtoturargohning tizimli boshqaruvga o'tkazilishi jinoyat sodir etish istagida bo'lganlar uchun

yo'llarni butunlay yopdi. Endilikda mahalla ahli begonalar keltirib chiqaradigan xavotirlardan xoli, osuda muhitda yashamoqda.

## INFRATUZILMA – IJTIMOY BARQARORLIK OMILI

Infratuzilmaning izga tushishi – shunchaki mahallaning qiyofasini o'zgartirib qolmay, balki hududdagi ijtimoiy barqarorlik va ruhiy xotirjamlikning bosh omiliga aylanmoqda. Zero, jinoyatchilikning ildizi faqat huquqiy madaniyatning yetishmasligida emas, balki aholining kundalik turmushidagi yechimini topmagan ijtimoiy muammolar va maishiy nosozliklar zamirida ham yotadi. Mahalladagi ijtimoiy muammolar kompleks yondashuv asosida hal etildi. Jumladan, 473-davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti yaqinidagi

xavfli chorrahaga mahalla raisi tashabbusi bilan svetofor o'rnatildi. Natijada ilgari mazkur hududda ko'p uchraydigan yo'l-transport hodisalariga butunlay barham berildi.

Shuningdek, «Veolia» kompaniyasi bilan hamkorlikda zamonaviy kichik issiqlik qozonxonasi barpo etildi. Eskirgan transformatorlar yangilanishi bilan yillar davomida aholini qiynab kelgan issiqlik va elektr ta'minotidagi uzilishlar bartaraf etildi. Bu kabi amaliy ishlar odamlarda davlatga va mahalla tizimiga bo'lgan ishonchni yanada oshirdi. Ko'chalarning to'liq asfaltlanib, obod maskanga aylantirilishi esa aholi o'rtasida ertangi kunga shukronalik hissini uyg'otib, bekorchilik va tushkunlik kabi illatlar o'rnini yaratuvchanlik va mahalla taqdiriga daxldorlik tuyg'usiga bo'shatib berdi.

«Qozirobod» mahallasida bo'y ko'rsatayotgan ijobiy o'zgarishlar Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlarning pastki bo'g'indagi hayotiy ifodasidir. Zero, inson qadri – xavfsiz muhit va osoyishta mahalla poydevoriga qurilgan bo'lsagina, o'zligini namoyon etadi. Bugun qozirobodliklar o'z mahallasining «yashil» maqomi bilan haqli ravishda faxrlanadi. Chunki bu tinchlik va farovonlik – mahalla ahlining hamjihatligi, yettilikning fidoyiligi hamda davlat g'amxo'rliги uyg'unlashgan joyda qad rostlamoqda.

**Sarvar SOBIROV,**  
o'z muxbirimiz.

*Toshkent shahri.*



## ► Mentor-apprentice

# WHEN EXPERIENCE AND ENTHUSIASM HARMONIZE



The chairman of the Veterans' council of the Fergana region Department of internal affairs road Safety department, retired lieutenant colonel Abduvakhob

Mirzaqulov, is making a significant contribution to educating young officers in the spirit of patriotism and professional loyalty based

on his 30 years of extensive experience. Today, his honorable path is being worthily continued by his son lieutenant Sardorbek Mirzaqulov. Within the framework of the «mentor-apprentice» tradition established in the system, veterans are assigned to young officers, and «meetings of three generations» and educational dialogues are regularly organized. A. Mirzaqulov consistently emphasizes the importance of continuous research and reading to his apprentices. Furthermore, in cooperation with the department leadership, the practice of visiting elderly veterans and those in ill health has been exemplary, serving as a profound school of spiritual and moral guidance for the young personnel.

## ► In Educational institutions

# THE STUDENT IS MY FRIEND



Lieutenant Asatilla Ortiqov, a preventive inspector of the Davlatobod district Department of internal affairs in Namangan city, is carrying out effective activities at the Namangan state university of foreign languages named after Isokhon Ibrat to enhance the legal awareness of students and ensure the early prevention of offenses. As a result of the preventive measures conducted by the inspector, no crimes were committed among students during the current academic year, and no dangerous items were

detected during «Blade» («Tig'») operations. A. Ortiqov worked individually with 31 students who were victims of violence and 18 students in difficult social situations, providing them with legal and psychological support; furthermore, he reintegrated students who had violated attendance and dress code regulations back into the educational process. His systematic efforts serve as a key factor in creating a safe environment at the institute and establishing close, friendly cooperation with the students.

## ► Officers guided by integrity

# ONE NIGHT, TWO CRIMES



During a night inspection conducted by the officers of the Sergeli district Department of internal affairs, psychotropic substances were discovered in a hotel room occupied by citizen T. Khodjayev and were documented in accordance with established procedures. Seeking to evade criminal liability, the citizen offered a bribe of 6 000 USD to major Abrorjon Azamov, Deputy chief of the 3rd division of the Sergeli district Department of internal affairs, in exchange for suppressing the case. Despite the officer's warning regarding compliance with the law, the citizen persisted in his intent and was apprehended with physical evidence during an operational event while handing over 4 000 USD as a bribe. This incident serves as a clear example of how the integrity of internal affairs officers ensures the rule of law and the inevitability of punishment.

## ► Courage

# LEADING THE WAY REGARDLESS OF YOUTH

The «Kulolchi» neighborhood, where captain Amrillo Rasulov serves as a preventive inspector for the Vobkent district Department of internal affairs, has been categorized as a crime-free «green» zone for the past two years due to the residents' entrepreneurship and the inspector's close cooperation with neighborhood activists. Serving with vigilance not only in his assigned territory but also in the neighboring district, A. Rasulov saved the life of a mother of four who had thrown herself into the «Vobkent daryo» canal on January 29, risking his own life in the process. In recognition of this exemplary dedication and bravery, Amrillo Rasulov was promoted to the special rank of «major» ahead of schedule by order of the Minister of internal affairs of the Republic of Uzbekistan. During a solemn ceremony held at the regional administration, this high recognition and valuable gifts were presented, highlighting the officer's professional loyalty and his extraordinary courage in saving a human life.



## ► Detective Mastery



# THE TRUTH ON THE IRON TRACKS

Junior sergeant Nurlan Qunnazarov, commander of the Patrol-post service unit at the Khojayli station of the Department of transport security in the Republic of Karakalpakstan, solved the theft of railway rails in the Takhiatosh district with meticulousness and high professionalism. By comparing tire tracks obtained from the crime scene with the specialized machinery in the area, the experienced officer tracked down the perpetrator and brought the suspect to a confession based on physical evidence. N. Qunnazarov, who has trained many apprentices and has been rewarded numerous times during his years of flawless service, sees his devotion to the profession continue within his family – his son, Ruslan, is currently studying the intricacies of his father's profession at the Academy of the Ministry of internal affairs.

## Faxriylar — faxrimiz

## CHINAKAM IBRAT MAKTABI

**Ichki ishlar organlarining Faxriylar kengashlari jamoat tuzilmasi hisoblanadi. Ularning asosiy maqsadi yosh xodimlarni vatanparvarlik, burchga sadoqat ruhida tarbiyalashga faxriylarni jalb etishdir.**

Toshkent shahar IIBB Faxriylar kengashi safida bugungi kunda 11632 nafar a'zo ro'yxatga olingan. Ulardan davlat boshqaruvi organlari, mahallalar va jamoat tashkilotlarida ishlayotganlari 130 nafarni tashkil etadi. Shundan 60 nafari mahalla fuqarolar yig'ini raislaridir. Ular orasida davlat mukofotiga sazovor bo'lganlar hamda Ichki ishlar vaziri tomonidan taqdirlanganlari ham bor.

Mazkur Faxriylar kengashining faol 28 nafar a'zo-si doimo bamaslahat ish yuritishadi. Ular ichki ishlar idoralarida, IIV ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan uch avlod uchrashuvlari doirasida yosh xodimlar bilan muloqot qilib, o'zlarining boy tajribalari bilan o'rtoqlashishyapti. Qolaversa, ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibi o'rtasida xizmat intizomi va qonuniyligni mustahkamlashga ham munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Darhaqiqat, faxriylar hayotning past-u balandini yaxshi biladigan, qiyinchilik



Suratda: Toshkent shahar IIBB Faxriylar kengashi a'zolari.

va sinovlarini boshdan kechirgan, yurt tinchligi va osoyishtaligini saqlash yo'lidagi fidokorona xizmat qilgan insonlardir. Ularning hayot yo'li yosh avlod uchun haqiqiy ibrat maktabi bo'la oladi.

IIBB Faxriylar kengashi, shuningdek, uzoq yillar Toshkent shahar ichki ishlar organlarida samarali xizmat qilib yoki nogironligi sababli pensiyaga chiqqan faxriylarga, hamda xizmat vazifasini bajarish chog'ida vafot etgan xodimlarning oila a'zolariga

moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatib kelmoqda.

Ichki ishlar organlari va mahalliy hokimiyat idoralari orqali faxriylarning yashash va maishiy shart-sharoitlarini yaxshilash, tibbiy yordam ko'rsatish, sanatoriy va dam olish maskanlariga qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozli yo'llanmalar bilan ta'minlashga, fuqarolik marosimlari va boshqa zarur hayotiy tadbirlarni tashkil etishga amaliy yordam berish ham Kengashning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi boshlig'ining maslahatchisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist, «Mehnat shuhrati» ordeni sohibi, iste'fodagi polkovnik Murodjon Karimov uzoq yillar davomida Faxriylar kengashiga raislik qilib kelmoqda. U bilan Faxriylar kengashi faoliyati haqida suhbatlashar ekanmiz, gap o'z-o'zidan yaqinda davlatimiz rahbari raisligida bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishi mavzusiga borib taqaldi.

— Videoselektor yig'ilishida Prezidentimiz tomonidan kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishda sun'iy intellekt, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, transchegaraviy va virtual jinoyatchilikka qarshi kompleks tizim yaratish bo'yicha muhim tashabbuslar ilgari surildi. Shuningdek, narkojinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish, yoshlarni giyohvandlik illatidan asrash, poytaxt tumanlarida «Qaytaruv guruhlari» faoliyatini yo'lga qo'yish, ichki ishlar organlari xodimlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish masalalari ham e'tibor markazida bo'ldi. Yurtboshimizning xalqimiz manfaatini ko'zlab, kuyunchaklik bilan olib borayotgan siyosatining asl mohiyatini yosh xodimlarga yetkazish, ularni Vatan va xalqqa sadoqat ruhida tarbiyalash borasida biz, faxriylar ham, o'z faoliyatimizni yanada takomillashtiramiz, — dedi Murodjon Karimov.

**Adolat FAYZIYEVA,**  
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

## Kasb fidoyilari

Lavhamiz qahramoni Guliston davlat universitetini tugatib, Sirdaryo tumanidagi 19-umumta'lim maktabida ishlay boshladi. Lekin uzoq yillar ichki ishlar organlarida xizmat qilgan otasi Anvar akaga havas qilgani bois 2021-yildan ichki ishlar organlariga qabul qilindi.

Avvalambor voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikka yo'l qo'ymaslik, o'quvchilarning davomatini yaxshilash, bolalarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish vazifalarini belgilab oldi. Buning uchun o'quvchilarni sport seksiyalariga, to'garaklarga jalb qilishga qattiq kirishdi. Shu maqsadda homiylik ko'magida minifutbol, voleybol, kurash musobaqalari uyushtirdi.

O'smirlar orasida «quloqsiz»lari ham uncha-muncha uchrab turardi. O'ktam ular bilan alohida shug'ullanadi. Nigora (ismlar o'zgartirildi) ana shundaylardan. «Shirin» mahallasida yashovchi bu qizning maktabdagi davomati yaxshi emasdi. Buning ustiga oilada erka qilib tarbiyalangani uchun ko'chaga chiqib ketadigan «hunar» chiqardi. O'ziga o'xshagan dugonalari bilan kafe-restoranlarga boradigan, ora-orada uydan qochadigan bo'ldi. Bir gal uni Toshkent shahridan topib kelishdi.

Nigorani Gulistondagi Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy

yordam ko'rsatish markaziga joylashtirishga to'g'ri keldi. Bu yerdagi bir necha kunlik profilaktika choralaridan keyin yana oilasi bag'riga qaytdi. O'ktam uning maktabga qatnashini nazorat qilib turdi. Shuningdek, qiziqishiga qarab voleybol to'garagiga jalb etdi. Qizning ota-onasi bilan maslahatlashishni kanda qilmadi. Shundan keyin qizning xatti-harakatlari ijobiy tomonga o'zgara boshladi.

«Oila – baxt qo'rg'oni» deyishadi. Katta inspektor hamma oila ham ana shunday bo'lavermasligini ish faoliyatida ko'p kuzatdi. Ota mas'uliyatsiz bo'lsa, jabrini bolasi tortadi. O'n besh yoshli Naimjon ham ana shunday bolalardan. Uning otasi farzandlari ta'minoti bilan ishi yo'q. Topganini maishatga sarflaydiganlardan. Natijada Naimjon maktabdagi o'qishini tashlab, avtomashinalar yuvish shoxobchasida ishlashga majbur bo'ldi.

Katta leytenant O'ktam Marupov uni bir necha bor tuman markazidagi shoxobchadan topib keldi. Davomatini nazorat qildi. Muammo yechilavermagach, mahalla raisi, profilaktika inspektori bilan bolaning xonadoniga bordi. Ota-onasi bilan jiddiy suhbatlashilgandan so'ng Naimjon o'qishga qaytdi.

**Abdurahmon MUSTAFOQULOV,**  
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

## NAIMJON O'QISHGA QAYTDI

**Sirdaryo tumani IIB JXX HPB VYMB katta inspektor-psixologi, katta leytenant O'ktam Marupov maktab ostonasiga qadam qo'yar ekan, beg'ubor yoshlar davrasidagi jo'shqin muhit unga o'zgacha ruh beradi. Ayniqsa, aksariyat o'quvchilardagi intilish, bilimga chanqoqlik uni doim xursand qiladi. Lekin barcha yoshlar ham birdek emas...**



## Seminar

## FAQAT HISOBOT UCHUN EMAS

Ana shu maqsadda Navoiy viloyatida jinoyat va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish hamda mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan o'quv seminari tashkil etildi.

Unda davlatimiz rahbarining «Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori ijrosini ta'minlash masalalari yuzasidan chiqishlarda unda belgilab berilgan vazifalarning mohiyatiga to'xtalib o'tildi.

Xususan, mahallalarda jinoyatchilikning ildizini aniqlash, xavf omillarini barvaqt bartaraf etish, profilaktik ishlar samaradorligini oshirish hamda sohalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Qaror ijrosi faqat hisobot uchun emasligi, balki har bir mahalla kesimida real natija berishi lozimligi ta'kidlandi.

**Jinoyatchilikning barvaqt oldini olish, mahallalarda tinch va osoyishta muhitni shakllantirish bugun nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, balki butun jamiyat oldida turgan dolzarb vazifadir. Shu ma'noda, mamlakatimiz rahbari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar amalda qanday ijro etilayotgani, ularning mahalla hayotiga qanday ta'sir ko'rsatayotgani alohida ahamiyat kasb etadi.**



Seminar davomida har bir mahallada manzilli ishlash tizimini joriy etish, aholi bilan bevosita muloqotni kuchaytirish, muammolarni joyida hal qilish ustuvor vazifa si-

fatida belgilab olindi. Shuningdek, profilaktika inspektori, mahalla raisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli va ijtimoiy xodim o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib

chiqish, qarorning har bir bandini aniq ijro etish zarurligi qayd etildi.

**Mahliyo XOLOVA,**  
o'z muxbirimiz.

*Navoiy viloyati.*

## Soha fidoyilari

## KASBIDAN OBRO' TOPIB

**Taxiatosh tumani hududidagi temiryo'lning zaxira yo'nalishidan relslar o'g'irlab ketilgani to'g'risida Qoraqalpog'iston Respublikasi Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasiga xabar berildi. Xabar asosida aytilgan manzilga yetib borgan tezkor guruh a'zolari eng avvalo voqea joyidagi holatni o'rganishdi. Relslarni olib ketish uchun kelgan kishilarning poyabzallari va avtotransport vositalari shinalaridan qolgan izlardan namunalar olindi.**

Gap shundaki, o'g'irlangan relslar ancha og'ir bo'lib, ularni maxsus texnikasiz olib ketish amri mahol edi. Yaqin orada esa bu turdagi texnika vositalari sanoqligina. Tezkor guruh tarkibidagi kichik serjant Nurlan Qunnazarov o'ziga biriktirilgan xizmat hududidagi ko'pchilikni tanigani bois, gumon qilinuvchilar ro'yxatini tuzish unchalik ko'p vaqt olmadi.

Surishtiruv, tekshiruv davomida maxsus texnika vositalaridan birining shina izlari voqea joyidan olingan izlarga o'xshab ketishi aniqlandi. Shu sababli uning egasi bilan yakka tartibda suhbat o'tkazildi. U o'z navbatida transport vositasini yaqin orada o'g'irli boshqarib, ishlari bilan bir-ikkita joyga chiqib kelganini aytdi.

Aksiga olib, shu paytda xonadon sahibining o'g'irli uyda emasdi. Uni izlab topish choralari ko'rildi.



Yigit bilan o'tkazilgan suhbat avvalida u yuz bergan o'g'irlikka aloqasi yo'qligini aytdi. Lekin voqea joyidan olingan ashyoviy dalillar qarshisida ojiz qolib, keyinchalik aybini tan olishga majbur bo'ldi. Shu tariqa N. Qunnazarovning to'g'ri xulo-

sa chiqarishi natijasida jinoyat qisqa vaqt ichida fosh etildi.

Albatta, lavhamiz qahramonining faoliyati davomida bunday natijalarga erishishida tizimdagi ko'p yillik tajribasi qo'l kelmoqda. U ayni paytda Qoraqalpog'iston Respublikasi

Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasining Xo'jayli bekatida xavfsizlikni ta'minlash bo'linmasi PPX bo'linmasi komandiri lavozimida xizmat qilib kelmoqda. O'tgan yillar davomida erishgan yutuqlari uchun ko'p bora rag'batlantirilgan.

– Albatta, inson o'z kasbiga mehr berib, vazifasiga mas'uliyat bilan yondashsa, undan obro' topishi turgan gap. Kichik serjant Nurlan Qunnazarov ana shu jihatlari, qolaversa to'g'riso'zliligi va xushmuomalaligi bilan yosh xodimlarga namuna bo'lib kelmoqda. Tajribali xodim sifatida ko'plab shogirdlar tarbiyalab yetishtirgan. Xizmat hududimizda tinchlik-osoyshtalik va xavfsizlikni ta'minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni aniqlashda uning ham munosib hissasi bor, – deydi Xo'jayli bekatida xavfsizlikni ta'minlash bo'linmasi boshlig'i, podpolkovnik Atabek Masharipov.

Nurlan Qunnazarov xizmatda tajribali xodim bo'lish bilan birga namunali oila boshlig'i ham hisoblanadi. Turmush o'rtog'i Guljahon Nuranova bilan 4 nafar farzandni tarbiyalab voyaga yetkazgan. O'g'irli Ruslan ota kasbini davom ettirish niyatida hozir IIV Akademiyasida tahsil olmoqda.

**Azamat PIRNIYAZOV,**  
o'z muxbirimiz.

*Qoraqalpog'iston Respublikasi.*



## Ayol va jamiyat

## E'TIBOR TAQDIRNI O'ZGARTIRADI

**Hayotda ba'zan shunday onlar bo'ladiki, birgina shirin so'z, ozgina e'tibor inson taqdirini o'zgartirishi mumkin. Ayniqsa, hayot sinovlariga duch kelgan, turli sabablar bilan probatsiya nazoratida turgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularni ijtimoiy hayotga qayta moslashtirish muhim vazifalardan biri.**

Buni yaxshi anglagan Urgut tumani IIB JXX Probatsiya bo'linmasi xodimlari hisobda turgan 97 nafar xotin-qizlar dardini tinglash, muammolarini birgalikda hal etish maqsadida tuman Oila va xotin-qizlar bo'limi, hamkor tashkilotlar vakillari ishtirokida uchrashuv tashkil etishdi. Har bir ayolning hayot yo'li, muammo va orzu-umidlari quloq tutildi. Mutaxassislar tomonidan ularning ruhiy holati o'rganildi. O'zlariga bo'lgan ishonchni oshirishga qaratilgan psixologik suhbatlar o'tkazildi. Shu bilan birga, ijtimoiy-huquqiy maslahatlar berilib, kasbga yo'naltirish, sog'liqni saqlash, oilaviy masalalar kabi ko'plab maishiy-ijtimoiy muammolarni hal etish yuzasidan amaliy yordam ko'rsatildi. 6 nafar hisobda turuvchi ayol ish bilan ta'minlandi.

Nodira Kozimova (ism sharifi o'zgartirildi) tumanning «Sariqtepa» mavzesida joylashgan Urgut Erkin iqtisodiy zonasidagi ishlab



chiqarish korxonasidan o'ziga munosib ish topdi.

– Ayollar uchun ish bo'lsa ishlayman derdim. Tikuvchilik qo'limdan keladi, uyda tikuv mashinam bor. Bu ish men uchun qulay,

ayniqsa transport va tushlik bilan ta'minlaganidan xursand bo'ldim, – deydi u.

– Jamiyat taraqqiyoti, avvalo, inson taqdiriga bo'lgan munosabat bilan o'lchanadi. Probatsiya

ro'yxatiga olingan xotin-qizlarning salomatligi ham e'tibordan chetda emas. Tuman Sog'liqni saqlash bo'limiga qarashli Markaziy poliklinika shifokorlari tomonidan bepul tibbiy ko'rik ham tashkil etildi. Bir qator mutaxassislar ko'rigidan o'tgan xotin-qizlarga aniqlangan kasalliklari bo'yicha zarur muolaja ko'rsatilib, 12 nafariga statsionar davolanish uchun imtiyozli yo'llanma berildi. Sog'lig'i tufayli tibbiy ko'rikka kela olmagan 6 nafar xotin-qizlarning yashash xonadonlariga borilib, tibbiy ko'rikdan o'tkazildi, – deydi tuman IIB JXX HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, podpolkovnik Zulfiya Yuldasheva.

Darhaqiqat, hamjihatlik va insonparvarlik ustuvor bo'lgan jamiyatda har bir ayol qayerda, qanday sharoitda bo'lmasin o'z o'rnini topishi, munosib yashashi uchun imkoniyat bor. Muhimi, bu imkoniyatlarni his etish va ulardan unumli foydalanishdir.

**Umida MAMADALIYEVA,**  
**o'z muxbirimiz.**

*Samarqand viloyati.*

## Ta'lim muassasalarida

## TALABA – MENING DO'STIM

**Namangan shahar Davlatobod tumani IIB JXX HPB profilaktika inspektori (Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti), leytenant Asatilla Ortiqov faoliyati davomida nafaqat talabalar o'rtasidagi tartibni yaxshilayapti, balki ularning huquqiy ongini oshirishga ham katta hissa qo'shmoqda.**



Asatilla tomonidan olib borilayotgan profilaktik tadbirlar institut hududida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, talabalar o'rtasida huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan. U institutdagi barcha talabalar bilan muntazam ravishda suhbatlar o'tkazib, yalpi yig'ilishlar, guruhlar

va fakultetlarda huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning oqibatlari haqida tushuntirish ishlari olib boradi. Uning faoliyatida talabalar bilan individual ishlashning o'rni beqiyos.

– 31 nafar jinoyat va zo'ravonlikdan jabrlangan talaba bilan yakka tartibda suhbatlashilib, vaziyat atroflicha o'rganildi va ro'yxati

shakllantirilib, ularga hi-moya orderi berish masalasi ko'rib chiqildi, – deydi Asatilla. – Shuningdek, 18 nafar ijtimoiy og'ir ahvoldagi talaba bilan yakka tartibda suhbatlar o'tkazilib, ularning o'ziga xos muammolari va ehtiyojlari o'rganildi.

Ushbu suhbatlarda talabalar o'z muammolarini,

o'qishdagi qiyinchiliklarini va turmush sharoitlarini muhokama qilish imkoniga ega bo'lishdi. Ayniqsa, 2 ta talabaga nisbatan oiladagi zo'ravonlik holatlari yuzasidan yordam ko'rsatilib, ular uchun tegishli psixologik ko'mak tashkil etildi.

2025/2026-o'quv yilining 5 oyi davomida talabalar

o'rtasida huquqbuzarliklar sodir etilmagan, bu esa lavhamiz qahramoni faoliyatining samaradorligini ko'rsatadi. Uning profilaktik tadbirlarini, targ'ibot ishlari muvaffaqiyatli olib borishi natijasida talabalar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishda sezilarli ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. O'tkazilgan «Tig'» tadbirlari davomida talabalar o'rtasida hech qanday o'tkir tig'li buyumlar aniqlanmagan. Bu, o'z navbatida, institutda xavfsizlikni ta'minlashdagi muvaffaqiyatni ko'rsatadi.

Davomat tadbirlarida mashg'ulotlarga kech qolib keluvchi, kiyinish tartibini qo'pol ravishda buzuvchi, darslarga sababsiz qatnashmayotgan 8 nafar talabani o'quv jarayoniga jalb etish bo'yicha hamda 2 nafar avtotransportda qatnaydigan talaba bilan YPX xodimlarini jalb qilgan holda, tushuntirish-targ'ibot ishlari olib borildi.

**Jahongir TO'XTASINOV,**  
**o'z muxbirimiz.**

*Namangan viloyati.*



## Молодежь — наше будущее

# РАЗ СТУПИВ НА ДОРОГУ — ИДТИ ДО КОНЦА

В системе органов внутренних дел сегодня все больше молодых специалистов, которые не просто осваивают профессию, а осознанно выбирают служение закону как дело всей жизни. Одна из них — дознаватель следственного отдела при УКД ОВД Учтепинского района столицы лейтенант Дильноза Жуманазарова.



Родители Дильнозы также посвятили себя службе, хотя и не в этой сфере. С детства видя ответственность, дисциплину и преданность делу, она понимала, что служба — это не просто работа, а путь, требующий характера и внутренней стойкости.

Мечта Дильнозы — стать лучшим следователем, тем профессионалом, на которого будут равняться в будущем.

Работа в следствии была ее осознанным желанием. В Академии МВД Дильноза прошла специальные экзамены, чтобы по распределению

попасть именно в следственное подразделение.

Ее наставница — старший следователь полковник Курляндцева Ольга Валериевна. Именно она стала той опорой, которая так необходима молодому сотруднику. Наставница не раз поддерживала, успокаивала и повторяла простые, но важные слова: «Сохраняй хладнокровие и включай ум. На все проблемы можно найти решение». Она учит не только терпению и ответственности, но и умению разграничивать службу и жизнь вне формы, чтобы работа не разрушала личное пространство и внутреннее равновесие.

В свободное от службы время Дильноза проводит с близкими и родными, отдыхая душой и восстанавливая силы.

**Юлия ЧАЙКИНА,**  
соб. корр.

Служба во взводе Почетного караула — это высокий уровень строевой выучки, где дисциплина и воинская эстетика образуют неразрывное единство, а каждое движение выверено с филигранной точностью.

## ЧЕСТЬ И ДОЛГ

Командир 3-й группы взвода Почетного караула батальона Комендантской службы войсковой части № 7531 младший сержант Рафикжон Аслонов — один из тех, кто с честью представляет Караульные войска МВД.

Он уроженец Р и ш т а н с к о г о района Ферганской области — земли мастеров и созидателей. Службу в Караульных войсках начал в 2018 году. Прежде чем возглавить группу Почетного караула, прошел серьезную школу в стрелковых подразделениях: был специалистом-стрелком, затем командовал секцией.

Глядя на то, с каким достоинством Рафикжон чеканит шаг в составе знаменной группы, его родители — отец Нумонжон ака, который трудится пекарем, и мама Хамидахон, многие



годы проработавшая воспитательницей, не скрывают искренней гордости. Радость его успехов разделяет супруга Хонзода, с которой они с добрыми надеждами воспитывают сыновей — Мустафо и Мухаммаджона, веря, что мальчики обязательно вырастут достойными людьми.

**Радик ТУМПАРОВ,**  
соб. корр.

## Наркомания — социальное зло

# УГРОЗА ОБЩЕСТВУ

**Незаконный оборот наркотиков — одно из самых опасных социальных пороков, разрушающих здоровье человека, ослабляющих нравственную атмосферу общества и представляющих серьезную угрозу стабильности. Он наносит вред не только судьбе человека, но и негативно отражается на будущем семей, махаллей и общества в целом. Особенно тревожным является то, что этот порок отравляет сознание молодежи, вовлекая ее в преступную деятельность.**

В нашей стране борьба с данными деяниями определена как одна из приоритетных задач. Законодательством Республики Узбекистан предусмотрена строгая ответственность. Правоохранительные органы принимают решительные, системные и бескомпромиссные меры по противодействию данному злу.

В этом направлении очередные практические меры были

осуществлены недавно в Наманганской области. В ходе оперативно-розыскного мероприятия, организованного совместно сотрудниками УВД области, Службы оперативно-розыскной деятельности, СГБ и ОВД Наманганского района, была пресечена незаконная деятельность, связанная с оборотом крупной партии наркотических средств.

В ходе мероприятия на территории Наманганского района

был остановлен и проверен автомобиль под управлением водителя, 1994 года рождения. В результате осмотра в находившейся в салоне сумке были обнаружены пять свертков с наркотическим средством (предположительно гашиш) общим весом два килограмма.

Оперативные мероприятия были продолжены, в результате чего при попытке получить данное наркотическое средство с поличным были задержаны женщина, 1994 года рождения, и ее брат, 1995 года рождения. По данному факту возбуждено уголовное дело, в настоящее время проводятся следственные действия.

Своевременное пресечение незаконного распространения наркотиков позволило предот-

вратить тяжелые последствия, что стало важным шагом в укреплении общественной безопасности.

Следует отметить, что противодействие данному злу — не только задача правоохранительных органов. Это общая ответственность каждого родителя, педагога, активиста махалли и каждого гражданина. Только через сплоченность, бдительность и небезразличие возможно эффективно противостоять этому опасному злу. Это, прежде всего, обеспечение верховенства закона, воспитание здорового поколения, сохранение нравственных ценностей общества и защита будущего страны.

**Соб.корр.**

Наманганская область.



## Mutaxassis fikri

MEHNAT MUNOSABATLARINING  
YANGI BOSQICHIELEKTRON MEHNAT  
SHARTNOMASI NIMA?

So'nggi yillarda raqamlashtirish jarayonlari mehnat munosabatlariga ham jadal kirib kelmoqda. Mehnat sohasida qog'ozbozlikdan voz kechib, raqamlashtirish ya'ni elektron tizimlarga o'tish muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilanmoqda. Mehnat shartnomasini elektron shaklda rasmiylashtirish amaliyoti ish beruvchilar uchun yangi majburiyatlar va mas'uliyatlarni yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 106-moddasiga ko'ra, mehnat shartnomasi yozma (qog'ozda yoki elektron) shaklda tuzilib, ularning har biri taraflar tomonidan imzolanadi. Elektron shakldagi mehnat shartnomasi qonunchilikda belgilangan tartibda «Yagona milliy mehnat tizimi» idoralararo dasturiy-apparat kompleksi orqali rasmiylashtiriladi. «YAMMT» IDAKning ishlashi, axborot xavfsizligining ta'minlanishi, axborot tizimi tarkibidagi shaxsga doir ma'lumotlarga ruxsatsiz kirishning oldini olish uchun Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda unga idoraviy mansub tashkilotlar mas'uldirlar.

«Yagona milliy mehnat tizimi» axborot resurslari, texnologiyalar hamda aloqa vositalaridan iborat tashkiliy jihatdan tartibga solingan tizim hisoblanadi. Mazkur tizimning joriy etilishi, avvalo, mehnat munosabatlarida shaffoflikni ta'minlash, «soya iqtisodiyoti»ni qisqartirish hamda xodimlarning mehnat huquqlarini yanada ishonchli himoya qilishga qaratilgan.

Elektron mehnat shartnomalarining «YAMMT» IDAK orqali tuzilishi ish beruvchidan shartnomani mehnat qonunchiligi talablariga muvofiq ravishda elektron shaklda rasmiylashtirish majburiyatini talab etadi. Mehnat shartnomasi ish beruvchi tomonidan tizimda shakllantiriladi hamda tomonlarning kelishuviga asosan elektron raqamli imzo orqali tasdiqlanadi. Xodim bunday shartnomani Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidagi shaxsiy kabineti orqali yuklab olishi mumkin. Qog'oz shaklida tuzilgan mehnat shartnomalari ish beruvchi tomonidan «YAMMT» IDAKga kiritilib, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangandan

so'ng ro'yxatdan o'tkaziladi. Elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanmagan ma'lumotlar asosida tuzilgan mehnat shartnomasi ro'yxatdan o'tkazilgan hisoblanmaydi.

Ish beruvchi va xodim o'rtasida elektron mehnat shartnomasi imzolaniishi bilan mehnat daftarchasi avtomatik tarzda «YAMMT» IDAK tizimida shakllanadi. Jismoniy shaxslar avvalgi mehnat faoliyatiga oid ma'lumotlarni o'z tashabbusi bilan «YAMMT» IDAKga mustaqil ravishda kiritish huquqiga ega. Kiritilgan ushbu ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi organlari tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanishi mumkin.

tuzilayotgan mehnat shartnomasidagi barcha shartlarning qonunchilik talablariga muvofiq, to'liq va aniq aks ettirilishini ta'minlashdir.

Ish beruvchi xodimga elektron mehnat shartnomasi bilan tanishish, uni imzolash va undan nusxa olish imkoniyatini yaratib berishi lozim. Ish vaqti, mehnat vazifalari, ish haqi, ta'til, mehnatni muhofaza qilish shartlari kabi bandlar aniq ko'rsatilishi shart. Shuningdek, ish beruvchi xodimining ijtimoiy ta'tilga chiqishini, shartnomaga qo'shimcha kelishuvni, xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasining bekor qilinishini ro'yxatdan o'tkazib borishi, bo'sh ish o'rinlari haqida tegshli ma'lumotlarni ham ochiq holda kiritib borishi kerak.

javobgardir. Ya'ni «YAMMT» IDAK tizimida ro'yxatdan o'tgan tegishli tashkilotning va undagi xodimlarning ichki ma'lumotlari xavfsizligi bo'yicha shu tashkilot ish beruvchisi va mas'ullari tegishli choralar ko'rishi shart. Axborot tizimlarida nosozliklar, ruxsatsiz kirish yoki ma'lumotlarning yo'qolishi ish beruvchi zimmasiga jiddiy javobgarlik yuklashi mumkin. Shu sababli ish beruvchilar axborot xavfsizligiga alohida e'tibor qaratishi, ma'lumotlarni zaxiralash, himoyalangan serverlardan foydalanish va vakolatli xodimlarga tizimga kira olishini ta'minlashi zarur.


ELEKTRON TIZIMNING  
AFZALLIKLARI

Yangi majburiyatlar bilan bir qatorda, elektron mehnat shartnomalari ish beruvchilar uchun qator qulayliklarni ham yaratadi. Avvalo, hujjatlarni saqlash, izlash va rasmiylashtirish jarayoni soddalashadi. Qog'oz hujjatlar bilan bog'liq yo'qotishlar, arxiv muam-molari va ortiqcha vaqt sarfi kamayadi. Bundan tashqari, mehnat munosabatlarining elektron tarzda rasmiylashtirilishi tekshiruvlar jarayonida ham ish beruvchi uchun qulaylik yaratadi. Zarur hujjatlarni tezkor taqdim etish, mehnat qonunchiligiga rioya etilayotganini isbotlash osonlashadi.

XULOSA  
O'RNIDA

Mehnat shartnomasini elektron shaklda rasmiylashtirish zamon talabi bo'lib, mehnat munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu jarayon ish beruvchilardan nafaqat texnik tayyorgarlikni, balki huquqiy ong va mas'uliyatni ham talab etadi. Yangi majburiyatlarga jiddiy yondashgan ish beruvchilar kelgusida huquqiy nizolardan xoli bo'lishi, xodimlar bilan ochiq va ishonchli munosabatlarni yo'lga qo'yishi mumkin. Shu bois, elektron mehnat shartnomalarini rasmiylashtirish masalasiga vaqtinchalik yuk sifatida emas, balki mehnat munosabatlarini tartibga solish va rivojlantirishning muhim vositasi sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

**Sarvar ASLANOV,**  
Adliya vazirligi huzuridagi  
Qonunchilikni tahlil qilish va  
tartibga solish ta'sirini baholash  
instituti bosh maslahatchisi.



Mehnat shartnomasining bekor qilinishi ish beruvchi tomonidan «YAMMT» IDAKga tegishli ma'lumotlarni kiritish orqali ro'yxatdan o'tkaziladi. Agar mehnat shartnomasi texnologik yoki ishlab chiqarishdagi o'zgarishlar, xodimlar sonining qisqartirilishi yoxud korxona tugatilishi munosabati bilan bekor qilingan bo'lsa, ushbu holat tizimda alohida qayd etiladi.

ISH BERUVCHILAR  
UCHUN YANGI  
MAJBURIYATLAR

Mehnat shartnomalarini elektron shaklda rasmiylashtirish ish beruvchilarga qator yangi majburiyatlarni yuklaydi. Avvalo, ish beruvchi «YAMMT» IDAK tizimini doimiy yuritib borishi va nazorat qilishi lozim. Ularning xavfsizligi va daxlsizligini ta'minlashi ham shular jumlasidandir. Yana bir muhim majburiyat — xodim bilan

MA'LUMOTLARNI  
SAQLASH,  
HIMOYALASH VA  
JAVOGBARLIK

Elektron mehnat shartnomalarini rasmiylashtirish bilan bog'liq eng dolzarb masalalardan biri — shaxsiy ma'lumotlarni himoyalashdir. Ish beruvchi xodimning shaxsiy ma'lumotlari, mehnat faoliyatiga oid axborotlarning sir saqlanishini ta'minlashi shart. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi va unga idoraviy mansub tashkilotlar «YAMMT» IDAKning ishlashi, axborot xavfsizligining ta'minlanishi, axborot tizimi tarkibidagi shaxsga doir ma'lumotlarga ruxsatsiz kirishning oldini olish uchun mas'ul hisoblanadi.

Ammo «YAMMT» IDAKdan ro'yxatdan o'tgan tashkilot va tuzilmalar xavfsizlikni ta'minlash, uni nazorat qilish borasida o'zlari tegishli

## Halollikni shior qilgan xodimlar

# BIR TUNDA IKKI JINOYAT

**Qish oqshomi. Odamlar osuda uyquda. Faqat aholining tinchligi va xavfsizligini ta'minlash yo'lida sidqidildan xizmat qilayotgan ichki ishlar organlari xodimlarigina bedor edi. Ular yaxshi bilardi – osoyishtalik hamisha hushyorlik evaziga saqlanadi.**

Soat tungi taxminan ikkilar atrofi. Poytaxtimizning Sergeli tumani IIOFMB xodimlari xizmat vazifasini bajarayotgan paytda tuman hududidagi «Atlantis» mehmonxonasida tekshiruv o'tkazildi. Mehmonxonaning ikkinchi qavatiga joylashgan, 1999-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan fuqaro T. Xodjayev yashab turgan xona ko'zdan kechirilganda, stol ustida oq rangli, kukunsimon psixotrop modda borligi aniqlandi.

Xodimlarning savollari fuqaroni sarosimaga soldi. U kalovlanib qolib, bir-biriga mos kelmaydigan turli fikrlarni bildirib, zahri qotil unga tegishli emasligini isbotlashga urindi. Biroq ashyoviy dalillar o'z so'zini aytgan edi. Mazkur holat yuzasidan T. Xodjayevga nisbatan tegishli tartibda hujjatlar rasmiylashtirildi.

Shundan so'ng uning nazarida ish tobora chigallasha boshladi. Qilmishini bosdi-bosdi qilish va javobgarlikdan qutulib qolish

maqsadida turli rejalar tuzdi. Shu niyatda Sergeli tumani IIOFMB 3-son IIB boshlig'ining o'rinbosari, mayor Abrorjon Azamovga murojaat qilib, o'ziga nisbatan chora ko'rilmaligi evaziga 6 ming AQSH dollari miqdorida pora taklif qildi.

Mayor A. Azamov fuqaroning bu taklifi qonunga zid ekanini, bunday harakat jinoyat ustiga jinoyat qo'shishini tushuntirdi. Ammo T. Xodjayev qayta-qayta pora taklif qilishdan to'xtamadi.

Mayor A. Azamovning bildirgisi asosida o'tkazilgan tezkor tadbir davomida fuqaro T. Xodjayev 4 ming AQSH dollarini pora sifatida berayotgan vaqtida ashyoviy dalil bilan qo'lga olindi.



Bu voqea bir haqiqatni yana bir bor isbotladi: qonunni aylanib o'tishga urinish insonni yanada chuqur botqoqqa tortadi. Jinoyat boshqa bir jinoyat uchun javobgarlikdan qutqarmaydi, balki uni og'irlashtiradi. Ichki ishlar organlari xodimlarining ha-

lolligi va xizmat burchiga sodiqligi esa jamiyatda adolat, qonun ustuvor bo'lishini ta'minlaydi. Qonun ustuvor bo'lgan joyda esa jinoyatga jazo muqarrardir.

**Adolat FAYZIYEVA,**  
o'z muxbirimiz.  
Toshkent shahri.

## El-yurt osoyishtaligi yo'lida

# VATANPARVARLAR OILASI

Vatan tinchligi, osoyishtaligi, sarhadlari daxlsizligini ko'z qorachig'idek asrash, uning taraqqiyoti yo'lida sidqidildan ishlash har bir yigit-qizning muqaddas burchi. Guliston shahar «Bog'ishamol» mahalla fuqarolar yig'ini raisasi, iste'fodagi mayor O'rozgul Bo'ronova hamda uning farzandlari mana shunday muqaddas burchni chuqur anglagan vatanparvarlardan.



O'rozgul opa Ichki ishlar organlarida 1993-yildan 2011-yilgacha Sirdaryo viloyati IIBda turli lavozimlarda xizmat qilib, pensiyaga chiqdi.

Mas'uliyatli sohada ishlash bilan birga uch nafar farzandni tarbiyalab voyaga yetkazdi. Katta qizi leytenant Mohira Ravshanova hozirda Sirdaryo viloyati IIB JQB inspektori lavozimida xizmat qiladi. Mohiraning o'g'li bo'lsa IIV Sirdaryo akademik litseyida tahsil olmoqda. Niyati ota-onasining izidan borib, ularning ishini davom ettirish.

O'rozgul opaning to'ng'ich o'g'li Temurbek ham bir necha yil Guliston shahar IIB Probatsiya bo'limi inspektori lavozimida xizmat qilgan. Keyinchalik Guliston shahar hokim-

ligi bo'lim boshlig'i lavozimida faoliyatini davom ettirgan. Baxtsiz hodisa sabab hayotdan bevaqt ko'z yumgan.

Oilaning kenja vakili Tohirbek esa Sirdaryo viloyati Mudofaaga ko'maklashuvchi «Vatanparvar» tashkilotining texnik va amaliy sport turlari markazi direktori vazifasida ishlaydi. U yosh avlodni Vatan himoyasiga jismoniy hamda ruhiy jihatdan tayyorlashga mas'ul.

O'rozgul Bo'ronova hozir ham el-yurt xizmatida. Opa o'zining umr yo'liga nazar tashlab mamnuniyat tuyadi, farzandlari bilan haqli ravishda faxrlanadi.

**Abdurahmon MUSTAFOQULOV,**  
o'z muxbirimiz.  
Sirdaryo viloyati.

## Haydovchilik mas'uliyati

# «RULDA SERGAK, YO'LDA HUSHYORMAN!»



- Yoqilg'i yetarlimi?
- Yetadi.
- Hujjatlar tayyormi?
- Tayyor.
- Shina bosimi-chi?
- Hammasi joyida.

Bu savol-javob kimlargadir juda oddiy tuyulishi mumkin. Lekin bu qisqa muloqot IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti Uchinchi mintaqaviy hudud 7-son tergov hibsonasi haydovchisi, safdor Shohruz Ismoilov bilan garaj texnik xodimi o'rtasida o'n yildan beri bir xilda takrorlanadi. Chunki bu suhbat qatida xizmat vazifasiga mas'ullik, texnik xavfsizlikka javobgarlik hissi yashiringan.

– Ustozim Zafar Muhammadiyev menga haydovchilikning tartib-qoidalarini o'rgatar ekan, xizmat yuzasidan chiqishdan oldin texnika holatini tek-

shirish, xavfsizlik qoidalariga qat'iy amal qilish, berilgan topshiriqni sifatli bajarish lozimligini uqtirardi, – deydi safdor Sh. Ismoilov. – Avval o'zingni boshqarolsanggina, avtomashinani boshqarasan, degan so'zlari qulog'imga qo'rg'oshinday quyilib qolgan. Kundalik oltin qoidamga aylangan. Shundan beri safaroldi yo'riqnomada diqqatli, rulda sergak, yo'lida esa doimo hushyorman.

Safdor Shohruz Ismoilovning otga ishq bo'lakcha. Uyida otlari bor, o'g'illarning jasur, pahlavon yigitlar bo'lib ulg'ayishi uchun ularga chavandozlikni o'rgatmoqda. Bu orqali farzandlarida intizomlilik va mas'uliyatni ham shakllantiriyapti.

**Umida MAMADALIYEVA,**  
o'z muxbirimiz.  
Samarqand viloyati.



Хорижда

# ҲИНДИСТОН ПОЛИЦИЯСИ- миллиардларнинг осойишталигига жавобгарлик

Ҳиндистон аҳолиси 1,4 миллиарддан ортиқ бўлган, этник, тил ва диний жиҳатдан энг хилма-хил давлатлардан бири ҳисобланади. Бундай улкан ва мураккаб жамиятда жамоат тартибини сақлаш, жиноятчиликка қарши курашиш ҳамда фуқаролар хавфсизлигини таъминлаш жуда катта масъулиятни талаб этади. Ана шу вазифалар Ҳиндистон полицияси зиммасига юклатилган.

Ҳиндистон полициясининг ҳозирги тизими XIX асрда, мамлакат Буюк Британия мустамлакаси бўлган даврда шаклланди. 1861 йилда қабул қилинган «Indian Police Act» қонуни замонавий полиция бошқарувининг ҳуқуқий асосини яратган. Мустақилликка эришилгандан кейин (1947 йил) мазкур тизим миллий давлат манфаатларига мос равишда ислоҳ қилинди,

қилади. У полиция тизимидаги энг юқори лавозим ҳисобланади.

Марказий ҳукуматга бўйсунувчи махсус полиция ва хавфсизлик тузилмалари ҳам мавжуд. Улар қаторига Central Reserve Police Force (CRPF), Border Security Force (BSF), Central Industrial Security Force (CISF), Indo-Tibetan Border Police (ITBP) ҳамда терроризм ва халқаро жиноятларни тергов қилиш



**Полиция** — давлатда жамоат тартибини сақлаш, қонунийликни ҳимоя қилиш ва жиноятчиликка қарши курашиш учун ташкил этилган махсус органлар тизимидир. Ушбу тузилма ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, текширувлар олиб бориш ва фуқаролар хавфсизлигини таъминлаш вазифаларини бажаради.

роризм, диний ва этник тўқнашувларнинг олдини олиш, сайловлар вақтида хавфсизликни таъминлаш каби вазифаларни бажаради. Сўнгги йилларда кибержиноятлар, онлайн фирибгарлик ва ахборот хавфсизлиги масалаларига ҳам алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Шу билан бирга, Ҳиндистон полицияси фаолияти жамоатчилик томонидан танқид ҳам қилинади. Асосий муаммолар сифатида сиёсий босим, коррупция ҳолатлари, хизматчиларнинг ортиқча иш юкламаси ва инсон ҳуқуқларининг бузилиши кўрсатилади. Давлат томонидан бу муаммоларни бартараф этиш мақсадида рақамлаштириш, электрон шикоят ва FIR тизимлари, кузатув камералари ҳамда «Smart City» дастурлари жорий этилмоқда.

Хулоса қилиб айтганда, Ҳиндистон полицияси кўлами, тузилиши ва вазифалари жиҳатидан дунёдаги энг мураккаб ҳуқуқни муҳофаза қилувчи тизимлардан бири ҳисобланади. Миллиардлаб аҳолини қамраб олган давлатда қонун устуворлигини таъминлаш осон эмас. Шунинг учун олиб борилаётган ислохотлар полиция тизимини янада самарали ва халққа яқин қилишга қаратилган.

**Абдурахмон  
МУСТАФОҶУЛОВ,  
ўз мухбиримиз.**



бирок хизмат интизоми ва иерархия тамойиллари асосан сақланиб қолди.

Ҳиндистон федератив давлат бўлгани сабабли полиция фаолияти асосан штатлар ваколатига киради. Мамлакатда 28 та штат ва 8 та иттифоқ ҳудуди мавжуд бўлиб, ҳар бири ўз полиция бошқармасига эга. Ҳар бир штат полициясига Director General of Police (DGP) раҳбарлик

га ихтисослашган National Investigation Agency (NIA) киради.

Расмий маълумотларга кўра, Ҳиндистонда полиция ва хавфсизлик органларида 2 миллиондан ортиқ ходим хизмат қилади. Бироқ шунга қарамай, аҳоли сонига нисбатан полиция ходимлари етишмаслиги муаммоси ҳам сақланиб қолмоқда. Айниқса, қишлоқ ҳудуд-

ларида битта полиция бўлимига ўнлаб қишлоқлар бириктирилган ҳолатлар учрайди.

Ҳиндистон полициясида лавозим ва унвонлар қатъий иерархия асосида ташкил этилган. Қуйи бўғин Inspector, Sub-Inspector (SI),

бўлимаси — Police Station, яъни полиция бўлими. У муайян шаҳар қисми ёки бир нечта қишлоқни қамраб олади. Қишлоқ ҳудудларида Police Outpost ёки Chowki деб аталувчи кичик таянч пунктлар ҳам фаолият кўрсатади. Улар одатда 3–10 нафар полиция ходимидан иборат бўлади ва маҳаллий аҳоли билан бевосита иш олиб боради.

Шаҳарларда полиция бўлимлари аҳоли зичлиги ва жиноятчилик турига қараб ихтисослаштирилади. Масалан, йўл-патруль хизмати, аёллар ва болалар билан ишлаш бўлимлари, кибержиноятларга қарши курашувчи махсус гуруҳлар мавжуд. Айниқса, аёлларга нисбатан зўравонлик ҳолатлари кўпайгани сабабли кўплаб штатларда алоҳида Women Police Station ташкил этилган.

Ҳиндистон полицияси фаолияти доираси жуда кенг. Улар маиший жиноятлар, уюшган жиноятчилик, коррупция, тер-

Assistant Sub-Inspector (ASI), Head Constable ва Constable лавозимларидан иборат.

Полиция тизимининг энг асосий ва энг кичик



## Ma'naviyat va ma'rifat darsi

So'z mulkingning sultoni Alisher Navoiy ijodi, adabiy merosi, she'riyati va shaxsiyati turkiy-o'zbek, umuman olganda, jahon badiiy tafakkur taraqqiyotida betakror hodisa hisoblanadi. U qalamga olgan mavzular, muammolar, jamiyat hayotidan lavhalar, his-tuyg'u tasvirlari – bari-bari o'z zamonasi chegaralarini ham davr, ham hudud jihatdan yorib chiqqan.

Navoiyshunos olim Ibrohim Haqqul: «Buyuk shoir, mutafakkir, adib, olim, orif va yirik davlat arbobi Alisher Navoiy ijodiyoti turkiy adabiyotning markazi, ya'ni muhtasham poytaxtidir», deb ta'riflagan edi. Shu jihatdan Navoiygacha bo'lgan davr, siyosiy-tarixiy muhit, adabiyot shunday buyuk shoir, mutafakkir va davlat arbobining yuzaga chiqishi uchun yetilgan payt deb qaraladi. U yashagan davr esa turkiy adabiyotning, ilm-fan va ma'rifatning, jamiyat osoniyshatligining gullab-yashagan pallasidir. Undan keyin yaratilgan aksariyat ijod namunalari yo bilvosita, yo bevosita Navoiyga («ijod poytaxtiga») borib taqalaveradi.

Alisher Navoiy bolaligidan ilm-fanga chanqoqligi, mustahkam xotirasi, teran fikrliligi bilan boshqalardan ajralib turgan. Bir qancha vaqt Xuroson va Samarqandda ustozlaridan saboq olgan shoir Hirotda qaytgach, Husayn Boyqaro hukmronligi davrida yuqori davlat lavozimlarida ishlab, bir paytning o'zida qizg'in va salmoqli ijod bilan ham shug'ullanadi.

Buyuk shoirning o'zi tartib bergan «Badoyi' ul-bidoya», «Navodir un-nihoya» devonlari, «Xazoyin ul-maoni» tarkibiga kirgan «G'aroyib us-sig'ar», «Navodir ush-shabob», «Badoyi' ul-vasat», «Favoyid ul-kibar» hamda forsiy tildagi «Devoni foni» asarlari she'riyat mulki sultoni xazinasidagi bebaho nazmiy javohirotlardir.

Navoiyning «Xamsa»si salaflarning xamsanavislik an'alarini davom ettirgan

# BUYUK SHOIR VA MUTAFAKKIR, DAVLAT ARBOBI

(9-FEVRAL – ALISHER NAVOIY TAVALLUD TOPGAN KUN)



holda, o'ziga xos jihatlariga ham egadir. «Xamsa»da jamlangan «Hayrat ul-abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab'ai sayyor», «Saddiy Iskandariy» nomli besh dostonning har biri an'anaviy dostonchilik tarixida tiklangan mahobatli va muhtasham haykaldir.

Navoiyning yana bir go'zal asari – «Lison ut-tayr» nomli falsafiy-irfoniy dostonida qushlar tasavvufda talqin qilinadigan yetti vodiy (talab, ishq, ma'rifat, istig'no, tavhid, hayrat, faqr fano) ni bosib o'tib Haqqa erishishadi.

Mutafakkirning tarixga oid «Tarixi muluki Ajam» kitobida payg'ambarlar haqida, shohlar tarixiga oid «Tarixi anbiyo va hukamo» asarida 63 hukmdor tarixidan hikoya qiladi.

Alisher Navoiyning ilmiy merosi asrlar o'tgani sayin qiymati va qimmatini oshib boradigan xazinadir. Adabiyotshunoslikka oid «Mufrod», «Majolis un-nafois», «Mezon ul-avzon», turkiy va forsiy tillar qiyosiga doir «Muhokamat ul-lug'atayn», diniy va tasavvufiy mavzudagi «Nasoyim ul-muhabbat»,

«Nazm ul-javohir», «Munojot», «Arbain», «Vaqfiya» asarlarini yozgan. «Xamsat ul-mutaxayyirin», «Holoti Sayyid Hasan Ardasher» va «Holoti Pahlavon Muhammad» nomli asarlari esa do'stlari va ustozlari xotirasiga bag'ishlangan.

O'tgan asrning so'nggi choragiga qadar kishilar orasidagi yozishmalarni, xatlarni saqlab qo'yish odati bo'lgan. Uyali aloqalar va ijtimoiy tarmoqlar rivoji ushbu qadriyatga ancha putur yetkazdi. O'z navbatida, «Munshaot» asari Navoiyning turli yillarda ko'plab shaxslarga yo'llagan turli mavzudagi maktublar to'plami bo'lib, ular 107 tani tashkil etadi. Umrining so'nggi yillarida, ya'ni 1500-yilda yozilgan pand-nasihat ruhida «Mahbub ul-qulub» asari esa o'ziga xos falsafiy ruh bilan sug'orilgan.

Navoiyning davlat arbobi sifatidagi nufuzi baland bo'lganligi hamisha e'tirof etiladi. Shoirning zamondoshlari yozgan xotiralarga nazar tashlasak, «Navoiy – xalq demakdir», degan xulosaga kelamiz. Chunki u doimo xalqparvarlik siyo-

satini olib borishga intilgan: ariqlar qazdirgan, shifoxonalar, kutubxonalar qurdirgan, shaharlarni obod qilgan. O'z hisobidan Xusraviya, Nizomiya kabi madrasalar, Xalosiya, Fanoiya kabi xonaqohlar, o'nlab masjid, 52 ta rabot, 20 ta hovuz, 16 ta ko'prik va 9 ta hammom qurdirgan.

Ko'pgina o'rinlarda Navoiyning oqilona tadbiri tufayli Husayn Boyqaroning o'z hukumatini mustahkamlagan, kezi kelganda, jar yoqasidan saqlab qolgani dalillanadi. Hattoki, bir necha bor Haj safariga otlangan Navoiy xalq manfaatlari, tinchligi tufayli har gal ushbu niyatini ortga surishga majbur bo'ldi. Umrining oxiriga qadar bu niyati armonga aylangan Alisher Navoiy 1501-yil 3-yanvarda sakta kasalligi tufayli vafot etadi.

Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi bir necha bosqichda amalga oshgan. Jumladan, o'z asarlarida ijtimoiy faoliyati: «Vaqfiya», «Munshaot»; shaxsiy hayoti: «Majolis un-nafois», «Xamsa», «Munojot», «Xazoyin ul-maoni»; ba'zi asarlarining yozilish tarixi bilan

bog'liq bo'lgan ma'lumotlar «Muhokamat ul-lug'atayn», «Xamsat ul-mutahayyirin», «Holoti Sayyid Hasan Ardasher» kabilarda uchraydi.

Buyuk mutafakkirning zamondoshlaridan Abdurazzoq Samarqandiy («Matla'i sa'dayn va majmai bahrayn»), Mirxond («Ravzat us-safo»), Davlatshoh Samarqandiy («Tazkirat ush-shuaro»), Jomiy va Zayniddin Vosifiy kabi zamondoshlari asarlarida uchraydi. Shuningdek, Alisher Navoiy haqidagi ma'lumotlar XVI–XIX asrlardagi tazkira, lug'at, tarixiy va badiiy asarlarda ham keltirib o'tiladi.

O'tgan asrning 20–30-yillaridan boshlab, yurtimizda Alisher Navoiy ijodini chinakam ilmiy mezonlar asosida o'rganishga kirishildi. Bu sohadagi dastlabki qadam sifatida Abdurauf Fitratning maqolalarini ko'rsatish mumkin. Keyinchalik Oybek, Olim Sharafiddinov, Sadridin Ayniy, Yevgeniy Bertels, Vohid Zohidov, Izzat Sulton, Aziz Qayumov, Porso Shamsiyev, Maqsud Shayxzoda, Vohid Abdullayev, Hamid Sulaymon, Natan Mallayev, Abduqodir Hayitmetov, Suyuma G'aniyeva, Najmiddin Komilov, Ibrohim Haqqul va boshqalar navoiyshunoslik taraqqiyotiga alohida hissa qo'shishgan.

Alisher Navoiyning buyukligi shundaki, u bir umr xalq xizmatida bo'lish, davlat vazifalarida ishlash barobarida, o'zidan keyingi turkiyzabon avlodga katta meros qoldirdi. Navoiy merosi mangu sarchashma, tuganmas xazina sifatida har bir zamon, har bir davrda o'z ahamiyatini saqlab qolaveradi. Jamiyatda mukammal shaxsga, komil insonga ehtiyoj bor ekan, Navoiy merosiga talab yuksalaveradi.

**Maftuna SHOMURODOVA,**  
filologiya fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD).



Qoraqalpog'iston  
tilidagi matn.



Rus tilidagi  
matn.



## IIV ta'lim muassasalarida

## QALBLARGA MA'RIFAT ULASHIB



**IIV Ixtisoslashtirilgan maktab-internatida «Postda-Ha nocmy» gazetasi kunlari doirasida tadbir bo'lib o'tdi.**

Tadbirida so'zga chiqqanlar tomonidan nashr mamlakatimizda, xususan, ichki ishlar organlarida amalga oshirilayotgan islohotlarni o'z o'quvchilariga uzluksiz yetkazib kelayotgan muhim axborot manbasi hisoblanishi, gazeta xodimlarning ma'naviy, siyosiy va huquqiy bilimlarini oshirishda, ularda fidoyilik va vatanparvarlik ruhini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etayotgani ta'kidlandi.

Shuningdek, tadbir davomida yoshlarning matbuotga qiziqishi, kitobxonlik madaniyati masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

– U xoh kitob bo'lsin, xoh gazeta yoki jurnal – barchasi yoshlar qalbiga ma'rifat ulashish imkonini beradi, – dedi tadbir qatnashchisi, IIV Faxriylar kengashi a'zosi, iste'fodagi polkovnik Bahodir Mamatkarimov. – Bugun axborot texnologiyalari jadal rivojlanmoqda, imkoniyatlar kengaydi. Ammo hech qanday texnika inson tafakkurini o'qish va fikrlashchalik boyita olmaydi. Bu vazifani so'z bajaradi. Gazeta – u qog'oz yoki elektron shaklda bo'lishidan qat'i nazar, ijod mahsuli, fikr va qarashlarning qaymog'idir. Maqola orqali insonni ogohlantirish, uning ma'naviyatini boyitish mumkin. Matbuotning ahamiyati ham aynan shunda.

Maktab-internati o'qituvchisi Oltinoy Tolipova ham gazetaning o'quv jarayonidagi ahamiyatiga to'xtalib:

– Gazetada chop etilayotgan maqolalarni pedagoglar ham, o'quvchi-yoshlar ham katta qiziqish bilan o'qiydi. Nashrning uslubiy yondashuvi va mazmuni bugungi kun talablariga to'liq javob beradi. Shuningdek, maktab jamoasi ham o'z yutuqlari va yangiliklarini gazetada chop etish imkoniga ega. Bu ijodiy hamkorlik uchun tahririyat jamoasiga minnatdorlik bildiramiz, – dedi.

Tadbir doirasida, kitobxonlik va matbuotga oid savol-javoblar tashkil etildi. Samimiy va qizg'in ruhda kechgan ushbu tadbir o'quvchilarda katta taassurot qoldirdi va faol qatnashgan yoshlar tahririyat tomonidan chop etilgan kitoblar bilan taqdirlandi.



Kezi kelganda alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda IIV Birlashgan tahririyati nafaqat gazeta va jurnal chop etadi, balki uning internet va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari ham faol ishlamoqda. Xususan, [www.postda.uz](http://www.postda.uz) veb-sayti, Telegram kanali, Instagram, YouTube va Facebook platformalari orqali o'quvchilarga tezkor axborotlar, tahliliy materiallar va videointervyular muntazam taqdim etiladi.

**Adolat FAYZIYEVA,**  
o'z muxbirimiz.  
**Abu KENJAYEV** olgan suratlar.



## O'qishni tavsiya qilaman

## MING YILLIK MUAMMO



**XIX asr rus adabiyotining mashhur yozuvchisi, shoir, dramaturg va publitsist Ivan Turgenevning «Otalar va bolalar» romanida yosh va katta avlod o'rtasidagi qarama-qarshiliklar, turli ijtimoiy qarashlar, shaxs dunyoqarashining shakllanishi, inson qadr-qimmatini, mas'uliyat va hayotiy tanlov masalalari keng yoritilgan.**

Asarda ko'tarilgan mavzular Ichki ishlar organlari xodimlarining kundalik xizmat faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, roman qahramonlarining hayotiy pozitsiyasi, qaror qabul qilishdagi qat'iyat yoki ikkilanish holatlari xodimlarda tahliliy fikrlash, vaziyatni xolis baholash va to'g'ri xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

«Otalar va bolalar» romani 1860-yilda chop etilgan bo'lib, ushbu asar Malik Rahmon tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan. Roman mazmunan siyosiy, falsafiy hamda sevgi-muhabbat mavzularini o'z ichiga oladi. Asar bosh qahramoni Yevgeniy Bazarov talaba bo'lib, kela-jakda shifokor bo'lishni maqsad qilgan. Ammo u nigilizm g'oyalari tarafdori bo'lib, bu falsafiy oqim insoniyatda mutlaq qadriyatlar mavjud emasligini targ'ib etadi. Bazarov asar qahramonlaridan biri Arkadiyning ustoz bo'lib, u aka-uka Kirsanovlarning liberal qarashlari hamda ota-onasining konservativ fikrlariga qarshi chiqadi.

Yozuvchi ushbu asar orqali kattalar va yosh avlod o'rtasidagi qarama-qarshiliklar, eski urf-odatlariga suyanib qolgan insonlar bilan yangilikka intilayotgan yoshlar o'rtasidagi ziddiyatlarni chuqur va ta'sirchan yoritib beradi. Asarni mutolaa qilgan kitobxon inson ongi va histuyg'ulari o'rtasidagi ichki kurash, qalb iztiroblari, qarashlarning o'zgarishi hamda muhabbat va insoniy qadr-qimmatning hayotdagi muhim o'rnini anglaydi.

Asarda tasvirlangan obrazlar bugungi kunda ham tez-tez uchrab turadi. Kattalar va yoshlar o'rtasidagi fikriy qarama-qarshiliklar har doim mavjud bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Shu sababli «Otalar va bolalar» romanida ko'tarilgan mavzular bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Men ushbu asarni barcha kitobxonlarga mutolaa qilishni tavsiya etaman.

**Ulug'bek QURBONOV,**  
safdor.



*Biz Yerni ajdodlarimizdan meros sifatida emas,  
balki farzandlarimizdan qarzga olganmiz.*

Shavkat MIRZIYOYEV

# «YASHIL» IQTISODIYOT yoxud hayot rangi mujassam barqaror taraqqiyot yo'li

**D**unyoda atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan holatlar tobora ko'payib bormoqda. Yurtimizda ham iqlim o'zgarishi, havo va suvning ifloslanishi kabi jiddiy ekologik muammolar kuzatilayotgani hech birimizga sir emas. Bu esa dunyo davlatlari qatori, mamlakatimizning ham «yashil» iqtisodiyotga o'tishi muhim hayotiy zarurat ekanligini ko'rsatmoqda. Biroq oramizda ko'pchilik «yashil» iqtisodiyotni faqatgina energetika sohasini isloh qilishdan iborat, deb o'ylaydi. Aslida unga toza ichimlik suvi muammolaridan tortib, oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo'jaligidagi innovatsiyalar, ekologik barqaror shaharlar, chiqindilarni oqilona boshqarish, o'rmon hududlarini kengaytirish, cho'llanishni qisqartirish kabi ko'p qirrali va keng qamrovli chora-tadbirlar kiradi.



## Ona tabiatdan ogohlik qo'ng'irog'i

Kundalik hayotda har birimiz toza havodan nafas olib, oziqlanish, kiyinishgacha tabiiy resurslardan foydalanamiz. Ulardan samarali, me'yorida foydalanish esa o'z navbatida yashash darajamizni, uzoq umr ko'rishimizni ta'minlaydi. Aytgancha, tabiatning rivojlanish qonuniyatlari bor. Ularni biz doim inobatga olishimiz lozim. Tabiiy fanlar bo'yicha tadqiqotlar olib borgan olimlardan biri «Insoniyat tabiat qonunlari asosida yashashi va rivojlanishi lozim. Agar inson tabiat qonunlarini inobatga olmasa, tabiat insonni jazolaydi» – deya ogohlantirgan edi.

So'nggi yillarda biz yashayotgan Markaziy Osiyoda o'rtacha yillik haroratning ko'tarilishi, mintaqadagi asosiy daryolarning havzasi va biologik xilma-xillikning qisqarib borayotgani ona tabiatning bizga yo'llayotgan ogohlik qo'ng'irog'iga o'xshaydi. Bunda bug'lanish darajasini oshiradigan gazlar va atmosferaning keng miqyosda ifloslanishi muammolarning yanada chuqurlashishiga xizmat qilayotgani ham bor gap.

## «Yashil» iqtisodiyot o'zi nima?

«Yashil» iqtisodiyot tushunchasi birinchi marta 1989-yil Buyuk Britaniyalik ekolog-iqtisodchilar tomonidan amaliyotga kiritilgan. «Yashil» iqtisodiyot deganda, inson hayoti va sog'lig'i uchun zarur bo'lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolib, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari bilan bog'liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo'nalishi tushuniladi.

«Yashil» iqtisodiyot inson, tabiat va iqtisodiyotning bir-biri bilan uyg'un va barqaror rivojlanishidir. Bunda biror narsani qilaman deb, ikkinchi narsa yo'qotilmaydi. Masalan, uy quraman, deb daraxtlar ayovsiz kesib tashlanmaydi, texnologiyalarni ko'paytirish havo atmosferasini zaharli gazlar bilan to'ldirish evaziga amalga oshirilmaydi.

## Barqaror taraqqiyot yo'lida muhim qadamlar

Yurtimiz bugun «Yashil» iqtisodiyot sohasida muhim qadamni qo'yib ulgurdi. Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan qarorlar, strategiyalar, davlatlararo kelishuvlar ushbu yo'nalishdagi chora-tadbirlarni yanada yuqori pog'onaga olib chiqishga asos bo'lmoqda. Xususan, O'zbekiston BMTning Barqaror taraqqiyot maqsadlari hamda Iqlim bo'yicha Parij bitimiga ham qo'shilgan. Har ikkala hujjat milliy hukumatlar zimmasiga «yashil taraqqiyot» talablarini bajarish majburiyatini yuklaydi.

«O'zbekiston – 2030» Strategiyasining 51-maqjadi «Yashil» iqtisodiyotga o'tish, uning asosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'rsatkichlarini keskin oshirish» deya belgilangan. Xususan, unda quyidagilar ko'zda tutilgan:

- qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 ming MVt hamda jami iste'moldagi ulushini 40 foizga yetkazish;
- sanoatda «yashil sertifikat»lar bozorini rivojlantirish va «ekologik markirovkalash» amaliyotini joriy qilish;
- 3 GVt quvvatli 3 ta issiqlik elektr stansiyalarini modernizatsiya qilish orqali tabiiy gaz sarfini kamaytirish;
- ko'p qavatli uy-joylardagi xonadonlarning energiya samaradorligi (energoaudit)ni baholash tizimini joriy etish;
- shaharlarda jamoat transportini ekologik toza yoqilg'iga o'tkazish;
- iqlim o'zgarishi sohasida barcha issiqxona gazlarini qamrab oluvchi monitoring tizimini (MRV) yaratish;
- issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan 2010-yildagi darajadan 30 foizga qisqartirish. Quvonarlisi, mazkur vazifalarning amaliy ijrosi allaqachon boshlab yuborilgan.

Hamyurtlarimizning fikr-mulohazalari, xohish-istaklari atroflicha o'rganilib, bildirilgan tavsiyalardan kelib chiqqan holda 2025-yil yurtimizda «Atrof-muhitni asrash va «yashil» iqtisodiyot yili» deb e'lon qilinishi ham mazkur yo'nalishdagi chora-tadbirlar ko'lamini yanada kengayishi va yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qildi.

## Islohotlar amalda

Prezidentimiz g'oyasi asosida «Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida yiliga 200 mln tup daraxt va buta ko'chatlarini ekish ko'zda tutilgan. Xususan, ekologik muhit eng og'ir bo'lgan Orol-bo'yi mintaqasida hozirgi paytda yashil qoplama 2 million gektardan oshdi.

2023-yil dekabr oyida Jizzax, Samarqand, Surxondaryo, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida 5 ta quyosh va 1 ta shamol elektr stansiyalarining birinchi bosqichi ishga tushirildi. Ularning umumiy quvvati 2400 MVtni tashkil qiladi.

Keyingi yillarda yurtimizda quyosh energiyasi sohasida investitsiyalar aniq dinamika bilan o'smoqda. Masalan, Namangan viloyatidagi quyosh stansiya va Toshkent viloyatidagi quyosh panellari loyihalari amalga oshirildi. Bunday loyihalar mamlakatimizda energiya samaradorligini oshirishga va uglerod emissiyasini kamaytirishga katta hissa qo'shadi.

## Xulosa o'rnida

O'zbekistonda «yashil» iqtisodiyotni keng joriy etish mamlakat tabiiy resurslaridan yanada oqilona foydalanish, turli xil ekologik muammolarni bartaraf etish bilan bir qatorda aholining turmush farovonligini oshirish, iqtisodiy o'sishni ta'minlashga sharoit yaratadi. Bunda har bir fuqaro mazkur yo'nalishdagi ilg'or tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashi lozim. Zero, «yashil» iqtisodiyot – hayot rangi mujassam barqaror taraqqiyot yo'lidir.

**Gulnoza TURG'UNBOYEVA,**  
o'z muxbirimiz.

## Osoyishtalik yo'lida

## O'ZIGA TALABCHAN

**G**'ijduvon tumani IIB JXX JTSB Patrul-post xizmati otryadi xodimlari jamoat tartibini saqlash, jinoyat va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish uchun bor kuch-g'ayratlarini safarbar etishmoqda. Zarur aloqa hamda texnika vositalari bilan ta'minlangan osoyishtalik posbonlarining sa'y-harakati tufayli jinoyatlar o'z vaqtida fosh etilmoqda. Ayniqsa, ular tumanda o'tkazilayotgan tezkor-profilaktik tadbirlarda faoldir.

O'tgan yilning dekabr oyi oxirida olingan tezkor ma'lumot asosida tuman-dagi Bobur nomli mahallada yashovchi X.G. xonadonida profilaktik tadbir o'tkazildi. Tadbir davomida xonadonda umumiy qiymati 32 million so'mlik bo'lgan 54 dona «1 Shots» hamda 5 dona «Korolevskiy salyut» nomli pirotexnika vositalari qonunga xilof ravishda saqlab kelinayotgani aniqlanib, tegishli tartibda rasmiylashtirib olindi. Mazkur tadbirda otryad inspektorlari, safdorlar Sirojiddin Ahmedov hamda Hayitbek Ramazonovlarning xizmati katta bo'ldi.

Jonkuyar osoyishtalik posbonlari faoliyatidan yana bir misol. Ikkovlon ertalab dehqon bozori hududida xizmat olib borayotganda, piyodalar yo'lakchasi bo'ylab kelayotgan qiz e'tiborlarini tortdi. U kimnidir eslatardi. Darrov ularning biri yonidagi suratlarni ko'zdan kechirdi. U kecha tushdan so'ng uyidan janjallashib chiqib ketgan qiz ekan.

– Qizning egnidagi kiyimi tanishday tuyuldi, – deya Hayitbek Ramazonov voqeani batafsilroq tushuntirdi. – Hamkasbimga hushyorroq tur deb, qizni savolga tutdim. Har qalay u yashirmadi, oqshomda dugonasinikida tunagan ekan. Endi boshqa bir dugonasinikiga bormoqchi bo'libdi. Unga bu qilayotgan

ishi noto'g'riligini va uydagilari tashvishlanayotganini aytdim, so'ng tuman IIBga topshirdik.

Lavhamiz qahramonlari avtopatrul yo'nalishida xizmat olib borishadi. Ular asosan tuman markazida va dehqon bozori atrofida jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlashda jonbozlik ko'rsatib kelishmoqda.

– Kecha bir yo'lovchi «Iphone-17» rusumli telefon apparatini topib olibdi. Shuni egasiga qaytarishimizni iltimos qildi. Jildini ochsak, plastik karta chiqdi, telefonning esa quvvati tugagan ekan. Plastik karta orqali manzilini aniqladik. Shu tarzda tushib qolgan narsalarni egasiga qaytardik, – deydi safdor Sirojiddin Ahmedov mag'rurlanib. – Bunday voqealarning ko'p marotaba guvohi bo'lganmiz. Ayniqsa, avtoturargohdagi mashinalar eshigini ochiq qoldirish holatlari ko'payib bormoqda. Shu bois biror kor-hol bo'lmasin deb, qo'riqbonlik ham qilib turamiz.

Qisqasi, o'ziga talabchan, dovyurak va jasoratli tuman IIB JXX JTSB Patrul-post xizmati otryadi xodimlari bilan haqli ravishda faxrlansak arziydi.

**Mirzoqul AHADOV,**  
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.



## Bizning sharh

Z AVLOD:  
ULAR KIMLAR?

**O**'tgan asr oxirida boshlangan sanoat inqilobi natijasida yaratilgan ilg'or texnologiyalar, axborot va raqamli muhit inson hayotini tubdan o'zgartirdi. Ana shu o'zgarishlar natijasi o'laroq, jamiyatda yangi avlod – Z (zed) avlod shakllandi. Bugungi kunda mazkur avlod nafaqat sotsiologlar va psixologlar, balki davlat boshqaruvi, ta'lim tizimi, iqtisodiyot va ommaviy axborot vositalari diqqat markazida turibdi.

«Z avlod» atamasi XX asr oxiri – XXI asr boshlarida amerikalik olimlar Uilyam Shtraus va Nil Xau tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Ular jamiyat taraqqiyotini avlodlar almashinuvi orqali tahlil qilib, har bir avlodning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy asoslab bergan.

Z avlod deb asosan 1997–2012-yillar orasida tug'ilgan insonlar vakillari ataladi. Ular texnologiya taraqqiyoti jadal kechgan, internet va raqamli vositalar hayotning ajralmas qismiga aylangan davrda ulg'aygan. Agar avvalgi avlodlar texnologiyani keyinchalik o'zlashtirgan bo'lsa, bu avlod texnologiya ichida katta bo'ldi.

Mazkur avlodning asosiy xususiyatlaridan biri – raqamli savodxonlikdir. Ular axborotni tez topadi, saralaydi va tahlil qiladi. Shu bilan birga, ular tanqidiy fikrlashga moyil bo'lib, har qanday ma'lumotni tekshirib qabul qiladi. Qolaversa, erkinlikka, ochiq muloqotga va ijtimoiy adolatga katta ahamiyat beradi.

Ta'lim tizimida Z avlod an'anaviy uslublardan ko'ra interaktiv, vizual va amaliy yondashuvlarni afzal ko'radi. Video darslar, infografikalar, onlayn kurslar va loyiha asosida o'qish ular uchun samarali hisoblanadi. Bu holat ta'lim tizimini yangilash va zamonaviy talablarga moslashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Mehnat bozorida ham yangi avlod vakillarining qarashlari o'ziga xos. Ular uchun ish haqidan tashqari, qulay ish muhiti, shaxsiy rivojlanish, erkin ish jadvali muhim. Shu sababli ushbu avlod axborot texnologiyalari sohasi, raqamli iqtisodiyot, startaplar, media, dizayn va muhandislik kabi sohalarga qiziqish bildirmoqda.

Yangi O'zbekiston – yoshlar mamlakati. Shu ma'noda Z avlod mamlakat rivojida muhim o'rin tutadi. Ular raqamli davlat xizmatlarini rivojlantirish, elektron iqtisodiyotni yo'lga qo'yish va innovatsion loyihalarni amalga oshirishda faol ishtirok etishi mumkin. Shuningdek, onlayn savdo, xizmat ko'rsatish, axborot texnologiyalari sohasidagi yangi g'oyalarni orqali ular yangi ish o'rinlari yaratishga qodir. Bu esa iqtisodiyot barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Albatta, ushbu avlod oldida ayrim muammolar ham mavjud. Internetga ortiqcha bog'lanish, ruhiy zo'riqish, jonli muloqotning kamayishi shular jumlasidan. Mazkur muammolarni hal etishda oila, ta'lim muassasalari va jamiyat hamjihatlikda ish olib borishi lozim.

**Abdurahmon MUSTAFOQULOV**  
tayyorladi.

## Саломатлик сабоқлари

Гриппнинг оддий вирусли шамоллаш касалликларидан фарқи шундаки, бирмунча оғир кечади. Касаллик тўсатдан бошланади. Эт увишади, тана ҳарорати кўтарилади, бош ва мушак оғрийди, умумий ҳолсизлик кузатилади. Бошланишида бурундан суюқлик оқиши ва томоқ оғриғи кузатилади.

Ўзингизда грипп касаллигининг аломатларини сезганингизда, аввало, идиш-товоқ ва ўрин-тўшагингизни алоҳида қилиб, бошқа хонада ётинг. Бу билан яқинларингизни грипп билан касалланишдан асраган бўласиз. Касалликнинг юқиш хавфи 2-5 кун давомида юқори бўлади.



# ГРИППГА БЕПАРВО БЎЛМАНГ!

**Грипп юқори нафас йўллариининг ўткир инфекцияси бўлиб, касалланиш асосан куз ва қиш ойларида кузатилади. Аҳолининг касалликка берилувчанлиги умумий. Уни юқтириб олиш жуда осон. Бемор йўталганда, аксирганда, сўзлашганда сўлак заррачалари орқали ҳавога тарқалади. Беморга яқин турган соғлом одам ҳаво-томчи йўли орқали касаллик қўзғатувчисини юқтириб олади.**

Грипп ва ўткир респиратор вирусли касалликлар билан касалланган беморнинг тузалишига уй шароитида малина, лимон ва асал қўшилган

чай, наъматак дамламаси яхши ёрдам беради. Касалликнинг олдини олиш учун куйидаги чора-тадбирларга эътиборингизни қаратинг:

- вирус ташқи муҳитга жуда чидамсиздир, шунинг учун хоналарни тез-тез шамоллатиб, исирик тутатиб туринг;
- оқсил ва дармондориларга бой тўйимли озиқ-овқат маҳсулотларини истеъмол қилинг;
- иммунитетни ошириш учун бадантарбия билан мунтазам шуғулланинг, кўпроқ очиқ ҳавода сайр қилинг;

– фаслга мос кийининг, совуқ кунларда тана ҳароратининг совиб кетишига йўл қўйманг;

– шахсий гигиена қоидаларига қатъий риоя қилинг, қўлларингизни совунлаб ювинг, оғиз ва бурунни сув билан чайинг;

– қиш мавсумида хонадонлар ва иш жойингиздаги иситиш тармоқларининг доимий ишлашини таъминланг;

– шифокор тавсиясига кўра, ҳар йили гриппга қарши эмланинг, бу касаллик асоратларини камайтириб, касалликнинг енгил кечишига ёрдам беради.

Ўзингизда ушбу хасталик аломатларини сезсангиз, дарҳол шифокорга мурожаат қилинг. У беморнинг ҳолатини аниқлайди ва зарурий даво чораларини белгилайди. Гриппга бепарво бўлманг, бу касаллик ўзидан кейин пневмония, бронхит, синусит, отит каби турли оғир асоратлар қолдириши билан хавфли ҳисобланади.

**Фурқат АСЛОНОВ,**  
**Сирдарё вилояти ИИБ**  
**Тиббиёт бўлими**  
**поликлиника**  
**бошлиғи-шифокор,**  
**катта лейтенант.**

## ҚИШНИНГ ТАБИБИ

**Қиш фаслининг энг шифобахш неъматларидан бири қовоқдир. Унинг таркибида жуда кўп минерал моддалар ва микроэлементлар бор. Айниқса, каротин моддасига бой. Қовоқнинг кўп турлари кейинги ҳосилга қадар тўйимлилик хусусиятини ҳамда таркибидаги витаминларни сақлайди. Фақат бандини узмаган ҳолда сақласа бўлгани.**

Буйрак ва жигар хасталикларидан қовоқнинг янги сиқиб олинган шарбатини кунига 100–200 граммдан ёки 500 грамм қирилган этини истеъмол қилиш тавсия этилади.

Косметологияда терингиз ёғли бўлса, қовоқни қирғичдан ўтказиб, 1 ошқошиғига бир дон тухум сариғи ва бир чойқошиқ асал қўшинг-да, юзингизга суртинг. Қовоқ юзни оқартириб, терини силлиқлаш хусусиятига эга. Қуруқ тери учун эса қовоқ пишган бўлиши шарт. Унга зайтун мойини қўшсангиз, тери озиқланади, юздаги хуснбузарга ҳам даво бўлади.

Томоқ оғриғи ва стоматитда қовоқнинг эт қисмини қирғичдан ўтказиб, суви сиқиб олинади. Озроқ илтиб, оғиз бўшлиғи чайилади.

Теридаги узоқ битмаётган ва йирингли яраларга, чуқур куйган жойларга қовоқ гулининг дамламасини қўйиш фойда беради.



Қовоқнинг яна бир устунлиги шундаки, мазали ва витаминларга бой бўлса-да, кам калорияга эга. Шу боис озиш истагида бўлганлар учун айна парҳезбop маҳсулотлардан бири.

Қовоқ мойи соч тўкилиши, тери қичишиши, терининг дағаллигига фойда.

Уруғининг ҳам ўзига хос хусусиятлари бор. Унинг таркиби Е ва В15 витаминларига бой. Бундай витаминлар кишига куч-қувват бериб, иммун тизимини меъёрда

ушлайди, касалликларга қарши курашувчанликни оширади. Уруғнинг мағзи рух моддасига бой бўлиб, асаб тизимига ижобий таъсир кўрсатади.

Сочдаги қазғoқ, танадаги йирик хуснбузар ва чипқон, умуман тери касалликлари, замбуруғли инфекцияларни даволашда қовоқ уруғи тенги йўқ табиб ҳисобланади. Бунинг учун уни майдалаб, кукун ҳолига келтирилади. Озроқ минерал сув билан аралаштириб, сочга ниқоб, зарарланган терига эса компрес қилиб қўйилади.

Гиждадан халос бўлиш учун қовоқ уруғини уйқуга ётишдан аввал асал билан истеъмол қилиб, эрталаб бир ошқошиқ канакунжут мойидан ичиш лозим.

Хўш, ўзида шунча фойдали хусусиятларни жам этган бу маҳсулотнинг зарари йўқми, деган табиий савол туғилиши мумкин. Албатта, айрим ҳолларда уни истеъмол қилиш чекланиши лозим. Хусусан, қонда қанд миқдори кескин ошганда, ошқозон яраси ҳамда паст кислотали гастритда қовоқни камроқ истеъмол қилиш мақсадга мувофиқ.

**Севара НОРБОБОЕВА,**  
**Тошкент шаҳар ИИББ Тиббиёт**  
**бўлими поликлиникаси**  
**терапевт-шифокори.**  
**Адолат ФАЙЗИЕВА,**  
**ўз мухбиримиз.**

## Hafta qahramoni

## YOSH BO'LSA HAM, BOSH BO'LIB

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

– Qo'shni «Vobkent» mahallasida xizmat olib borayotgan hamkasbim mehnat ta'tilida bo'lgani uchun, bu mahallaga ham xizmat ko'rsatmoqdaman. Har kuni ikkala mahallani aylanib, ko'cha vakillari va fuqarolar bilan uchrashaman. Holatni o'rganib, muammolari bo'lsa, yechim topishga harakat qilaman. Qolaversa, aholiga telefon raqamimni tarqatganim menga ancha qulay bo'lmoqda, – deydi Amrillo Rasulov. – 29-yanvar kuni soat 16:20 larda «Vobkent» mahallasidan oqib o'tuvchi kanal bo'yida «Sohilbo'yi» qurilishida ishlab turgan ustalar qo'ng'iroq qilishdi. Bir ayol o'zini daryoga tashlamoqchi ekan. O'zim shu yaqin hududda bo'lganim uchun darrov yetib keldim. Haqiqatan ham, ayol qamishlar orasida tentirab yurardi. Darrov u tomon yugurdim. Ayol esa o'zini suvga tashladi. Shundan so'ng bor fikri-xayolim uni suvdan olib chiqish bo'ldi. Bir amallab muzday

suvdan olib chiqib, ayolni tezda tibbiy bo'limga olib bordik. Bunda menga ustalar yordam berishdi. O'ylaymanki, mening o'rnimda boshqa odam bo'lganida ham, xuddi shunday yo'l tutgan bo'lardi.

Inson o'zi bilib-bilmay bir xatoga yo'l qo'yadi-da, so'ng afsus chekib, xatoni to'g'rilash o'rniga oson yo'l-ni tanlaydi. Amrillo Rasulov qutqargan ayol ham «botqoq yo'l»ga adashib kirgan va barchasiga chek qo'yish uchun o'zimni o'ldiraman, deb o'ylagan edi...

Fidoyilarcha qilingan xizmat hech qachon e'tiborsiz qolmaydi. Amrillo Rasulovning o'ta qaltis holatda ko'rsatgan jasorati ham e'tiborga olindi. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining buyrug'iga muvofiq, unga muddatidan oldin «mayor» maxsus unvoni berildi.

Yaqinda viloyat hokimligida lavhamiz qahramoniga mazkur unvonni topshirish marosimi bo'lib o'tdi. Unda viloyat hokimi B. Zaripov Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev raisligida joriy yilning 27-yanvar kuni

Toshkent shahrida xavfsiz muhitni shakllantirish hamda jamoat xavfsizligini samarali ta'minlash bo'yicha namunaviy amaliyotni yaratish chora-tadbirlari yuzasidan bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida har qanday huquqbuzarlikning oldini olishda asosiy bo'g'in mahalla profilaktikasi ekanligini alohida ta'kidlanganini aytib, bugungi kunda xizmatda fidoyilik namunalari ko'rsatayotgan ichki ishlar organlari xodimlari mehnati har qancha e'tirofga loyiq ekanligini bildirdi.

– Vobkentlik profilaktika inspektorining xizmatda ko'rsatgan jasorati shunchaki oddiy ish emas,

u bugun bir xonadon bekasi, 4 farzandning onasini qutqarib qoldi. Xodimning ota-onasi, ta'lim-tarbiya bergan ustozlariga ming rahmat. Zero, favqulodda holatlarda inson hayotini saqlab qolish ichki ishlar organlari xodimlarining oliy burchi, sharaflidir, – dedi B. Zaripov.

Tadbirda profilaktika inspektori Amrillo Rasulovga «mayor» maxsus unvonini berish to'g'risidagi vazirlik buyrug'i o'qib eshittirildi va unvon topshirildi. Shuningdek, u viloyat hokimligi va ichki ishlar boshqarmasining qimmatbaho esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Hayotda inson yuksak marra-larni ko'zlab astoydil mehnat qilsa, albatta, unga yetishadi. Lavhamiz qahramoni ham o'z jonini xatarga qo'yib, o'zgalar hayotini saqlab qoldi. Uning bu xizmati haqiqiy mardlik va kasbga sadoqat namunasidir. Ishonamizki, u halollik bilan o'z faoliyatini davom ettirsa, hali yuksak mukofotlar olishga ham erishadi.

**Mirzoqul AHADOV,**  
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

**Lavhamiz qahramoni kun sovug'ida tez oqayotgan kanalga o'zini tashlamaganda, to'rt nafar farzandning onasi vafot etgan bo'lardi. Yosh bolalar esa yetim qolishardi...**

## «Yoshlar orasida giyohvandlik va psixotrop moddalarning tarqalishiga qarshi kurashish» oyligi

## OCHIQLANGAN RAQAMLAR, O'YLANTIRADIGAN TAHLILLAR

**B**ugungi kunda giyohvandlik va narkojinoyatchilik nafaqat milliy, balki mintaqaviy va global miqyosda xavfsizlik hamda barqarorlikka jiddiy tahdid solmoqda. Ayniqsa, yoshlar tomonida turli narkotiklar iste'moli yoki ularning narkojinoyatlarga aralashib qolish holatlari yildan yilga ortib borayotgani tarbiyaviy, tushuntiruv va birlamchi profilaktik tadbirlarni doimiy ravishda o'tkazib borishni taqozo etmoqda.

Narkovaziyatni barqarorlashtirish va narkotahdidlarga qarshi kurashishning samaradorligini oshirish maqsadida Prezidentimizning «Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni qabul qilindi.

Farmon bilan «Giyohvandlik va narkojinoyatlarning barvaqt oldini olish hamda ularga qarshi kurashish bo'yicha 2025–2026-yillarga mo'ljallangan kompleks amaliy harakatlar milliy dasturi» tasdiqlandi.

Milliy dasturda fevral oyida «Yoshlar orasida giyohvandlik va psixotrop moddalarning tarqalishiga qarshi kurashish» keng qamrovli tezkor-profilaktik oyligini o'tkazish vazifasi belgilangan. Mazkur oylikka rasmiy start berilishi munosabati bilan poytaxtimizdagi O'zbekiston Milliy kino san'ati saroyida Narkotiklar va o'qotar qurollarni nazorat qilish agentligi, Ichki ishlar, Maktabgacha va maktab ta'limi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar, Sog'liqni saqlash vazirliklari, Yoshlar ishlari agentligi va O'zbekiston mahallalari uyushmasi hamkorligida matbuot anjumani tashkil etildi.

Unda qayd etilishicha, o'tgan 2025-yilda respublikada huquq-tartibot idoralarining sa'y-harakatlari natijasida giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning noqonuniy



muomalasi bilan bog'liq 15 412 ta jinoyat va 1 956 ta ma'muriy huquqbuzarlik aniqlangan. Shuningdek, tezkor tadbirlar natijasida 3 tonna 413 kg narkotik, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning noqonuniy muomalasiga chek qo'yilib, iste'molga chiqib ketishining oldi olingan.

Giyohvandlik vositalarining eng ko'pini gashish va opiy moddalari tashkil etayotgani, 14 yashirin narkolaboratoriya aniqlanib, ularda saqlangan jami 75 kg giyohvandlik vositalari va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar musodara qilingani aytib o'tildi.

Narkojinoyat sodir etgan 11 ming 49 nafar shaxs javobgarlikka tortildi. Achinarlisi, jinoyatchilarning 59 nafarini maktab o'quvchilari, 124 nafarini talabalar tashkil etgan.

Respublikadagi narkovaziyat, oylikni yuqori darajada o'tkazish bo'yicha yoshlar orasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan profilaktikogohlantiruv va targ'ibot-tushuntirish ishlari yuzasidan batafsil axborot berilgan tadbir doirasida Toshkent shahar hokimligi bilan hamkorlikda «Yoshlar forumi» o'tkazildi. Unda poytaxt mahallalari yoshlar yetakchilari, xotin-qizlar faollari,

ta'lim muassasalarining tarbiyaviy ishlarga mas'ul xodimlari, talabalar, maktablarning inspektor-psixologlari va yuqori sinf o'quvchilari ishtirok etdi.

Forumni yosh ijodkorlar tomonidan yaratilgan «Badal» qisqa metrajli filmi premyerasi ochib berdi. Premyerada mualliflar loyihani yaratishga turtki bo'lgan sabablar, uni suratga olishda qo'llanilgan kreativ yondashuv, film orqali yoshlarga yetkazmoqchi bo'lgan asosiy g'oya haqidagi fikrlarini bayon qildi.

Tadbirda «Antinarko» yoshlar front ofisi taqdimoti o'tkazildi. Shuningdek, forum davomida Yoshlar ishlari agentligi faollari tomonidan «Mini muzey»da va «Blits» qiziqarli savol-javob viktorinalari tashkil etilib, g'oliblar esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Forum yoshlar orasida nafaqat sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, balki ularning giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi immunitetini shakllantirish, mazkur illatlarning salbiy oqibatlaridan ogohliklarini oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

**Gulnoza TURG'UNBOYEVA,**  
o'z muxbirimiz.

## Jazoni ijro etish tizimida

# FIDOYILIK UNING SHIORI

IIV huzuridagi JIED Beshinchi mintaqaviy hudud 12-son JIEK Tarbiyaviy ishlar bo'limi katta inspektori, katta serjant Elyor Namozov o'z vazifasini sidqidildan bajarib kelayotgan fidoyi xodimlardan. Lavhamiz qahramoni har bir mahkumni alohida shaxs sifatida ko'radi, uning ozodlikka chiqqanidan keyingi taqdiriga ham befarq emas. Sobiq mahkum yashaydigan hududdagi profilaktika inspektori, mahalla faollari bilan aloqa o'rnatib, uning ijtimoiy moslashuvi jara-yonini kuzatib boradi.

Misol uchun, Toshkent shahrida yashovchi D. jinoyat sodir etgach, 12-son JIEKda jazo muddatini o'tadi. Muas-sasada tikuvchilik kasbini puxta egallab, tegishli serti-fikatga ega bo'ldi. Ozodlikka tayyorlash jarayonida Elyor Namozov mahkumga endi bemalol biror korxonaga ish-ga joylashishi yoki o'z uyida kichik tikuvchilik sexi tashkil etib, ishlashi mumkinligini tushuntirdi. Eng asosiysi – qayta jinoyat yo'lga kirmas-likka da'vat qildi.

Biroq hayot har doim ham rejadagidek kechavermas ekan. Ozodlikka chiqqanidan taxminan ikki oycha o'tib, haligi yigit Elyor Namozovga qo'ng'iroq qilib:

– Aka, aytgan gaplaringiz to'g'ri kelmayapti. Serti-fikatinga hech kim qarama-yapti. «Qamalib chiqqan»

deb ishga olishmayapti, – dedi.

Elyor darhol Toshkent shahridagi mutasaddi idoralar xodimlari bilan bog'lanib, vaziyatni tu-shuntirdi, fuqaroga ijtimoiy yordam ko'rsatish, uni qo'llab-quvvatlash zarur-ligini bildirdi. Natijada, ora-dan ko'p o'tmay, mahalla fuqarolar yig'ini mas'ullari D.ga homiylar ko'magida zamonaviy tikuv mashinasi olib berishdi. Bugungi kunda D. o'z xonadonida tikuvchilik faoliyati bilan shug'ullanib, qurilish, obodonlashtirish va boshqa sohalar uchun maxsus kiyimlar tikib, halol mehnat bilan daromad top-moqda.

Elyor faoliyatidagi yana bir ta'sirli voqeani eslab yuradi. Asli Buxoro viloyati-dan bo'lgan R. ismli mahkum



tarbiyaviy suhbatlarning birida kutilmaganda:

– Mening qo'limdan ji-noyatdan boshqa ish kelmay-di, uka. Ozodlikka chiqsam, yana jinoyat qilib, qamoqxo-naga qaytsam kerak, – dedi.

Elyor avval bunday fikrdan ajablandi: qanday qilib inson jazoni ijro etish muassasasida bo'la turib, ozodlikka chiqqach, ehtimol yana jinoyat sodir etishi haqida gapirishi, o'z kelaja-giga shunchalik ishonchsiz-lik bilan qarashi mumkin? Shundan so'ng jonkuyar xodim shu mahkum bilan alohida profilaktik ishlar

olib bordi, uni tadbirkorlikka qiziqtirdi.

Erinmasdan mahkum yashaydigan hududni o'rganib, qaysi soha unga mos kelishi mumkinligini tahlil qildi. Nati-jada, sharoitdan kelib chiqib, chorvachilik eng maqbul yo'nalish ekanini aniqladi. O'zi ham bir paytlar chorvachilik bilan shug'ullangan, sohaning barcha nozik jihatlari yaxshi bilar edi. Shu bois, R.ga amaliy maslahatlar berdi. Bugun R. ozodlikda, chorvachilik bi-lan shug'ullanib, ro'zg'ori-ni tebratyapti. U gohida Elyorga qo'ng'iroq qilib, yo'l-yo'riq so'rab turadi.

Elyor Namozovning o'n olti yillik xizmatidan bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Ularning har biri alohida taqdir, alohida ha-yot, alohida baxsh etilgan umid to'g'risida so'zlaydi. Bu esa uning kasbiga bo'lgan sadoqati, insonparvarligi va fidoyiligining isboti. Bunday xodimlar faoliyat ko'rsatadi-gan jazoni ijro etish muassa-salarida mahkumlar qayta tarbiyalanishiga, hayotda to'g'ri yo'lni topib olishiga shubha yo'q.

**Inomjon RAHIMXO'JAYEV,**  
mayor.

## Muruvvat

# «NAF'ING AGAR XALQQA BESHAKDURUR...»

**Farzand ko'rish – katta baxt. Go'dak hidi oilaga ma'sumlik, baxt va iliq harorat olib kiradi. Javlonbekning dunyoga kelishi ham ota-ona-si uchun xuddi shunday hissiyotlar baxsh etdi. Ammo... go'dakning tug'ma yurak xastaligi bilan tug'ilgani ma'lum bo'lganda baxtli kunlar sinovli kunlarga o'rin bo'shatib berdi.**

Bola 6 yoshga to'lgunga qadar ota-ona topgan-tutgani, bor imkoniyatini uning sog'ayishiga sarfladi. Jizzax, Toshkent, Samarqand-dagi shifoxonalarga qatnovlar tinmadi. Bora-bora o'rtahol oila bu yuklamani ko'tara ol-may qoldi. Shunda onaizor davlatdan ko'mak so'rashga qaror qildi. Tumanda viloyat IIB boshlig'ining sayyor qabuli bo'lishini eshitib, to'g'ri o'sha manzilga bordi.

– Shu kuniyoq oilamiz uchun katta o'zgarish boshlandi.

Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i meni diqqat bilan eshitib, albatta, yordam ko'rsatilishini bildir-ganida dilim yorishib ketdi. Uyimga

qaytib, xabar berishlarini kuta bosh-ladim, – deydi Do'stlik tumanidagi



«Sartepa» mahallasida yashovchi Nagima Qo'ldosheva.

Ko'p kutishiga to'g'ri kelmadi. O'sha haftadayoq o'g'li ikkalasini

Samarqand shahridagi bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markaziga olib ketishdi. Chuqur tekshiruvlardan so'ng Javlonbekda jarrohlik amali-yoti o'tkazildi. Tibbiyotning ilg'or usullari hamda davlatning beg'araz ko'magi sabab uning hayoti saqlab qolindi. Ota-ona bilan birga viloyat ichki ishlar organlari-ni bir necha mas'ul xodimi ham Samarqand-dagi tibbiyot muassasasi-da bo'lishdi. Ular operatsi-ya o'tib, xavf ortda qolguncha ota-onaga suyanchiq bo'lib turishdi.

Shu voqeaga ham 5 yil bo'libdi. Bu orada bayram-larda viloyat hamda tuman IIBlari vakillari kelib, bo-lakayni yo'qlashni unu-tishmadi. Javlonbek esa o'z vaqtida maktabga chiqdi, tengdoshlaridan ortda qolmay, hatto til o'rganishga kirishdi. Vaqtida ko'rsatilgan tibbiy

yordam sabab u jismoniy va aqliy sa-lomatlikda tengdoshlaridan zig'ircha kam emas.

Yaqinda Nagima Qo'ldosheva viloyat IIB boshlig'i, general-mayor G'ayrat Qodirovning qabulida bo'lib, ko'rsatilgan yordam uchun min-natdorlik bildirdi. Onaizorning dil tubidan chiqqan izhorlar viloyatning barcha osoyishtalik posbonlariga qaratilgan edi. Shu o'rinda hazrat Navoiyning:

«Naf'ing agar xalqqa beshakdurur,  
Bilki, bu naf' o'zungga ko'prakdurur»

bayti yodga tushadi. Bir bolaning salomatligini saqlab qolishga hissa qo'shgan Jizzax viloyati ichki ishlar organlari mutasaddilari va xodimlari uchun ham bu kun baxtli voqea sifa-tida yodda qoldi.

**Muqaddas SAPAROVA,**  
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.



## Tahlil

# BOLA NEGA HUQUQBUZARLIK SODIR ETADI?

**Yoshlar – ertamiz egasi, umidimiz, istiqbolimiz. Dilimizdan tilimizga ko'chgan bu yoqimli so'zlar, faxr-iftixor ortida ularning ta'lim-tarbiyasi, xulq-atvori, umuman, yoshlarning kelajagiga mas'ullik, javobgarlik hissi bor.**

– Nodir (ismi o'zgartirildi) hozirda sakkizinchi sinfda o'qiydi, – deydi Parkent tumani IIB HPB voyaga yetmaganlar masalasi bo'yicha inspektor-psixolog, katta leytenant Gulchehra Mirzaxmedova. – U o'g'rilik sodir etgan. Mazkur holatning sabablari o'rganilganda, bolaning ota-onasi dehqonchilik orqasida tirikchilik qilishi, u buvisining qaramog'iga ishonib qoldirilgani ma'lum bo'ldi. Dastlab Nodir buvisining erkasi bo'lib, uning pensiya pullarini bemalol ishlatib yurgan, keyin «ehtiyajlari» ortgan. Va begona cho'ntakka qo'l solib, pul o'g'rilagan. Tashvishlisi, bolaning o'g'rilik qilishdan maqsadi osongina pul topish ekanligi. Vaholanki, hozir u o'qish, o'rganish, kelajakdagi orzulari poydevorini qo'yish pallasida. Biroq oilaviy muhitning nosog'lomligi,

Mamlakatimiz bo'yicha 2024-yilda voyaga yetmaganlar tomonidan 3 112 ta oldini olish mumkin bo'lgan jinoyat sodir etilgan bo'lsa, 2025-yilda ushbu ko'rsatkich 2 798 taga tushgan. Ya'ni, jinoyatlar soni 10,1 foizga kamaygan. Bu esa maktab, oila, mahalla va huquqni muhofaza qilish organlari o'rtasidagi hamkorlik mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Biroq bir nafar bolaning qonun chegarasini buzib o'tishi ham uning kelajagiga salbiy ma'noda soya solishi mumkinligi bizni tashvishlantirishi kerak. Masalaning o'ylab ko'riladigan tomoni ham shunda.

– Yoshlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni o'tgan yil misolida tahlil etadigan bo'lsak, har ikkinchisi (1313ta) o'g'rilikka to'g'ri keladi, – deydi O'zbekiston Respublikasi



kerak. Ushbu jinoyatlarning 12 foizi axborot texnologiyalari orqali sodir etilgan. Bu bevosita internet yoshlar uchun imkoniyat eshiklarini ochish barobarida, kiberfiribgarlik va virtual tajovuz kabi xavf-xatarlarni ham olib kelayotganini dalillaydi.

Jamiyatda yoshlar jinoyatchiligi haqida gap ketganda, ko'pincha oqibatga e'tibor qaratiladi. Aslida

o'rnak oladi. Oilada qonunga hurmat, mehnatsevarlik va mas'uliyat hissi ustuvor bo'lsa, bolada ham shu qadriyatlar shakllanadi. Aksincha, beparvolik yoki zo'ravonlik mavjud muhitda o'sgan bolaning salbiy xulq-atvoriga moyil bo'lishi ehtimoli oshadi.

Ha, dono xalqimiz tilidagi «Qush uyasida ko'rganini qiladi» maqoli yosh avlod tarbiyasida hayotiy asoslariga tayangan hikmatlardir. Bugun voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi faqatgina ichki ishlar organlarining muammosi emas. Bolalardagi salbiy o'zgarish avvalo ota-onani, qolaversa, maktab, mahalla va butun jamiyatni tashvishga solishi lozim. Bunda eng muhim maqsad – bolaning xatosini o'z vaqtida to'g'rilash, uning xatti-harakatlarini nazoratga olish. Shuningdek, balog'at davriining beqaror kayfiyati, qiziqqonlik va o'zini namoyon qilish istagining kuchliligi, huquqiy savodxonlikning yetishmasligi ham kutilmagan og'ir oqibatlarga sabab bo'lishini unutmaslik kerak.

Bolalarning savollari ko'p. Bu savollarga ular ulg'aygani sayin javob topib boradi. Kimning ko'magida? Albatta, yaqinlari, ota-onasi, ustoz-murabbiylari, tengdoshlari bilan muloqotda, o'zaro suhbatda. Demak, hamma istakning ro'yobi maslak birligi, do'stona tillashishda, to'g'ri tarbiyada. Shunday ekan, olamga har bir nigohida so'roq bilan boqqan bolalarning ongu tafakkuriga faqat ezgu maqsadlar joylab, tilini topib ulg'aytiraylikki, ular huquqbuzarlik sodir etmasin.

**Gulnoza TURGUNBOYEVA,**  
o'z muxbirimiz.



nazoratsiz qolishi, vaqtini behuda sarflashi bilan bog'liq bir-birini to'ldirgan vajlar sabab huquqbuzarlikka qo'l uryapti. Hozirda Nodir jinoyat sodir etishga moyil o'smirlar ro'yxatida turadi. U bilan goh yakka, gohida ota-onasi ishtirokida profilaktik suhbatlar olib borilmoqda.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti tomonidan taqdim etilgan mavzuga doir raqamlarni keltirib o'tsak.

Kriminologiya tadqiqot instituti Jinoyatchilik omillarini tadqiq qilish markazi ilmiy xodim-tadqiqotchisi, mayor Madina Abdijalilova. – Shuningdek, 84 ta firibgarlik, 193 ta bezorilik, 87 ta talonchilik, 68 ta og'ir tan jarohati yetkazish, 68 ta transport vositasini olib qochish, 36 ta nomusga tegish, 17 ta bosqinchilik va 15 ta qotillik holatlari qayd etilgan. Shu o'rinda yana bir xavotirli jihatni aytib o'tishim

esa muammoni tushunish uchun sabablarga nazar tashlash muhim. Tahlillarga ko'ra, yoshlar o'rtasida jinoyatga olib kelayotgan omillar orasida ota-onaning tarbiyaviy namunasi omili yetakchi o'rinda tura-di. Bu ko'rsatkich bola shaxsining shakllanishida oilaning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko'rsatadi. Chunki bola, eng avvalo, ota-onasining kundalik xulq-atvori, munosabati va hayot tarzidan



Хам куласиз, хам куясиз

## ЙЎЛДА ХАТО МЎЛ БЎЛДИ

Халқимиз ажойиб. Ростдан хулқимизга гоҳида четдан келганлар, сиртдан назар солганлар жуда юқори баҳо беришади. Бундай мақтовларни ижтимоий тармоқларда жуда кўп кузатамиз. Аммо ўзаро меҳр-оқибатнинг, ҳурмат-этиборнинг, яхшиликларнинг-да ўзига хос мезонлари, меъёрлари, чегараси, «қизил чизиғи» бўлиши керак шекилли...

### Намунали хулқ-атворнинг намунаси намоёиши

QR-коди этиборингизга ҳавола этилаётган видеода ва ушбу суратларда икки юртдошимизнинг ўзаро муносабати кўрсатилган. Афтидан узоқ кўришишмаган дўстлар катта йўлда тасодифан учрашиб қолиб, бир-бири билан самимий кўришишди ва дарровда ўз йўллари билан кетдилар. Аммо шу биргина самимийлик учинчи юртдошнинг бошига савдо, ғавго келтирди.

### У албатта айбдор, лекин... айбдор эмас

Учинчи юртдош – орқадаги Spark автомашинасининг ҳайдовчиси йўл ҳаракати қоидасини бузган ҳолда қарама-қарши йўлга ўтди ва катта жаримага тушди.

Хўш, «Spark» ҳайдовчиси айбдорми? Албатта! Аммо

уни хато қилишга мажбурлаган ким ёки нима? Намунали одатимизни намунаси намоёиш қилган икки дўстми, йўлларда ҳаракатланиш маданиятини билмасликми ёки сабрсизлик? Балки «Spark» ҳайдовчиси жуда шошиб тургандир, шифохонага тезда бориши керакдир, зарур иш билан кетаётгандир. Лекин бошқаларнинг касри унга урди. Тўғрироғи, «Деточкин айбдор, лекин... айбдор эмас».

### Тарбия яхши, ижро ёмон

Албатта ёшларимизнинг бир-бирларига самимий муносабати жуда яхши ҳислат. Бироқ яхши муносабат бошқаларга нисбатан этиборсизлик ортидан бўлмаслиги керак! Атрофда сиздан бошқа инсонлар ҳам бор, улар ҳам дўстингизга кўрсатганингиз каби ҳурматга лойиқ. Самимийликни жойида, меъ-

ёрида, маданият билан ижро этмоқни ҳам билиш керак.


### «Сабр усти сариқ олтин»

Сабр отидан тушиб, бетоқатлик отига миниб, Spark отини қамчилаган ҳайдовчи ана энди катта жаримага тушди. Халқ мақоли «Сабр усти сариқ олтин» бўлиб кетди.

### Хулоса — муроса

Хулоса оддий. Бу ёғи энди шундоғам оҳорли кўйлакни дазмоллайман деб куйдириб қўйган келин қилмишига ўхшаб кетди. Йўл ҳаракати қоидасини бузган барча иштирокчиларга нисбатан тегишли тартибда қонуний чоралар кўрилди. Наилж, ҳаммаси яхши бошланиб, ёмон тугаган бу ҳодисот билан муроса қилиб, бундан бўён ҳар ишни ўз жойида, ўз вақтида, чиройли амалга оширмоқлик ҳаммамизга насиб этсин.

Эркин САТТОРОВ.



## МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

(9 – 15 февраль)

**Қўй (21.03 – 20.04).** Ҳафтани аъло кайфият билан бошлайсиз. Иш,



шахсий ҳаёт билан боғлиқ сиз қабул қилган қарорлар ўз самарасини бериб, атрофдагилар олдида обрў ва ҳурматингиз яна бир поғона кўтарилиши мумкин. Бунинг учун ҳар жабҳада ўз устида ишлаш ёрдам беради.

**Бузоқ (21.04 – 20.05).** Руҳий ўсиш, би-



лимларни бойитиш учун мақбул давр. Кучли ирода ва мақсад сари интилиш туфайли ҳар қандай истакка эришиш мумкинлигини унутманг. Дам олиш кунлари атрофдагилар билан муносабатда тушунмовчиликлар юзага келиши эҳтимоли юқори.

**Эгизаклар (21.05 – 21.06).** Сизни турмуш



чорраҳаларида жиддий ўзгаришлар кутмоқда. Бу ҳафта давомида ҳар қандай қарорни мустақил қабул қилишга, кераксиз ва ҳалақит қилувчи буюмлардан қутулишга, атрофингизни ўраб турган муҳитга янги тус бахш этишга интилинг.

**Қисқичбақа (22.06 – 22.07).** Молиявий



маблағ сарфларини яқинларингиз билан обдан маслаҳатлашган ҳолда амалга оширинг. Лекин шахсий ҳаётга боғлиқ қарорларни мустақил қабул қилишга интилинг. Бу ҳафта вақтинча ишни ва оилавий ташвишларни бир четга суриб, ўз қизиқиш ва севимли машғулотларингиз учун вақт ажратинг.

**Арслон (23.07 – 23.08).** Кўпроқ изланишда



бўлинг, имкон қадар такомиллашиш ва ривожланиш сари олға қадам ташланг. Ҳамкасблар орасидан муносиб дўстларни топишга интилинг, шунда ишдаги кўпгина масалаларнинг ҳал этилиши муваффақиятли кечади.

**Паризод (24.08 – 23.09).** Сизни бироз но-



тинч ва ташвишли кунлар кутмоқда. Бу даврда иккиланиш, журъатсизлик ва шубҳа ҳар жиҳатдан сизга ҳалақит қилади. Иш фаолияти ва ижтимоий ютуқлар тарозининг бир палласини, оилавий фаровонлик эса иккинчисини эгаллайди. Бироқ барибир танлов муқаррар. Бу борада қарор қабул қилишда юрак амри билан иш тутган маъқул.

**Тарози (24.09 – 23.10).** Келаётган ҳафтада



сиздан тиришқоқлик ва серғайратлик талаб этилади. Ҳар бир бажараётган ишингиз учун елкангизга катта масъулият юкланганини зинҳор унутманг. Барча саъй-ҳаракатларингиз мукофотсиз қолмайди. Бу даврда ишга оид келишувлар омадли бўлиб, янги танишувлар эса узоқ муддатли ва мустаҳкам бўлади.

**Чаён (24.10 – 22.11).** Келаётган ҳафта



сиз ўйлагандан ҳам аъло даражада кечади ва бу даврда сиздан бахтли одам бўлмайди. Янги танишувлар, учрашувлар, қизиқарли тадбирлар сизга манзур бўлади. Дам олиш кунларини ижодга бағишланг.

**Ўқотар (23.11 – 21.12).** Бу ҳафта сиздан



алоҳида кузатувчанлик талаб этилади. Бегоналар ишингизга аралашшига йўл қўйманг. Фақат шундагина режадаги барча ишлар кўнгилдагидек амалга ошади. Бу даврда оилавий масалаларни ҳал этиш учун ҳам имконият туғилади.

**Тоғ эчкиси (22.12 – 20.01).** Ушбу ҳафтада



амалга оширилган лойиҳа ва ташаббуслар ўз қадрига эга бўлади. Сешанба ва пайшанба кунлари фойдали жамоат ишлари учун мақбул давр. Ўз режаларингизни раҳбарият билан ҳозирча ўртоқлашманг, бу ишдаги мавқеингизга таъсир кўрсатиши мумкин.

**Қовға (21.01 – 19.02).** Келаётган ҳафтада



ишлар ўйлаганингиздек бир маромда кечмайди. Унутманг, эҳтиёткорлик кўпгина ташвишларни четлаб ўтишга ёрдам беради. Бу даврда ўз муаммоларингизни атрофдагилар билан ўртоқлашмай турунг. Дам олиш кунлари имкон қадар оила даврасида ҳордиқ чиқаринг.

**Балиқ (20.02 – 20.03).** Ўзаро тушун-



мовчилик, келишмовчилик ва муросага келмаслик яқинларингиз билан муносабатларга салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Ким биландир уришиш истагингизни бостилинг, бу жиҳат сизга ушбу қийинчиликларни енгиб ўтишга ҳалақит қилади.



## Сулола

## БОБО ИЗИДАН...

Дилшод бобоси полковник Ҳақберди Худойбердиевнинг касбига ҳавас билан улғайди. Мактабдан қайтгач, хона тўрига қўйилган суратига боқиб, «Албатта, бобомнинг касбини давом эттираман», – деб пичирлади.

Болалик орзусини рўёбга чиқариш учун Қарши иқтисодиёт коллежининг ҳуқуқшунослик бўлимида ўқиди. Ҳарбий хизматдан қайтиб, отаси Самат ака ва онаси Раъно аянинг дуосини олиб, 2006 йили ИИБ Академиясига ҳужжат топширди. Синовлардан муваффақиятли ўтиб, тингловчилар сафидан жой олди.

Илк хизмат фаолиятини Шаҳрисабз тумани ИИБ ЖКБ тезкор вакили лавозимидан бошлаган Дилшод устози, ҳозирда вилоят ИИБ ТҚХ ЖКБ бошлиғи, подполковник Камолитдин Искандаровдан соҳавий хизмат сирларини ўрганди ва қатор жиноятларни фош этди. Жумладан, беш йилдан буён қидирувда бўлган, одам савдоси жиноятини содир этган Х.Х.ни қўлга олди.

Майор Дилшод Ҳақбердиев хизматнинг кейинги йилларида Қарши шаҳри, Миришкор ва Қарши тумани ИИБларида, вилоят ИИБ Тоғли худудлардаги ЖКБда тезкор ходим сифатида давом эттирди. Икки йилдирки, вилоят ИИБ ТҚХ ТҚКБда катта мутахассис сифатида фаолият кўрсатиб келмоқда.

Дилшоднинг бобоси Ҳақберди Худойбердиевнинг болалик йиллари оғир меҳнат билан ўтди. Ҳарбий хизматни ўташи эса Иккинчи жаҳон уру-

ши бошланган пайтга тўғри келди. Жанггоҳларда душманга қарши курашди. Шиддатли жангларда олган жароҳати уни юртимизга қайтишга мажбур қилди.

Болалигида қалбида ниш урган эл осойишталиги, юрт тинчлигини сақлашга бўлган иштиёқ туфайли 1952 йилда у ички ишлар идоралари хизматига кирди. Қашқадарё вилояти ИИБ ЖИБ тизимида тезкор вакил сифатида иш бошлади. Тиришқоқлик ва ташаббускорлик хислатларини намоён этди. Қашқадарё ва Сурхондарё вилоятлари бирлашган йилларда эса Термиз шаҳридаги Тергов ҳибсхонаси бошлиғи ўринбосари лавозимида хизмат қилиб, тажриба ва малакасини оширди. Сўнгра вилоят ИИБ Хўжалик бўлимида ишлаб, шаҳар-туман ички ишлар бўлимлари биноларини бунёд этишга ҳисса қўшди.

Ҳақберди Худойбердиевдаги бурчга садоқат, билим ва тажриба уни жазони ижро этиш муассасаси бошлиғи этиб тайинланишига замин ҳозирлади. Бу даврда шахсий таркибни жамлаш, хизмат интизомини мустаҳкамлаш, касбий, жанговар ва жисмоний тайёргарлик ишларини намунали ташкиллаштиришга бошқош бўлди. Маҳкумларни қайта тарбиялашда жонбозлик кўрсатди.



Ҳақберди ота ҳаёт бўлганида янада кўп ишларни амалга ошириши мумкин эди. Афсуски, бевақт ўлим уни 1978 йили ҳаётдан олиб кетди.

Ҳақберди ота турмуш ўртоғи Рўзиой ая билан уч ўғил, тўрт қизни вояга етказишди. Фарзандларининг барчаси ҳаётда ўз ўрнини топишди.

«От ўрнини той босар» деганларидек, фарзандлар орасида Собир отасига издош бўлди. Вилоят ИИБ ЖИБга қарашли Жазони ижро этиш колонияси бошлиғи лавозимида полковник унвони билан пенсияга чиққанди. Таассуфки, отаси сингари, юрак хуружи туфайли дунёдан кўз юмди.

– Бобом ва амакимнинг ишини давом эттираётганимдан фахрланаман, – дейди майор Дилшод Ҳақбердиев. – Негаки, уларнинг шарафли ҳаёт ва хизмат йўли мен учун чинакам ибрат мактабидир.

Дарҳақиқат, бобоси касбини улуглаб, муваффақиятли давом эттириб келаётган майор Дилшод Ҳақбердиев турмуш ўртоғи Шалолаҳон билан уч нафар фарзанд тарбиясида ҳам собитқадам. Улар орасидан осойишталик посбонлари етишиб чиқса, ажабмас. Демакки, сулола давом этади.

**Содиқ РАҲИМОВ,**  
ўз мухбиримиз.

Қашқадарё вилояти.

## Jinoyat va jazo

## ISHONCH – ENG KATTA BOYLIK

**Birovning ishonchiga kirib, firib yo'li bilan mol-mulkini qo'lga kiritish qonun oldida og'ir javobgarlikka olib keladi. Buni bila turib, o'zgalar hisobiga osongina boyishni maqsadga aylantirib olganlarning oramizda borligi achinarli.**

Termiz shahridagi «Yulduz» mahallasida yashovchi Salomat Boqiyeva (ism-shariflari o'zgartirildi) turmush o'rtog'i Orziqul Mahamov bilan til biriktirib, odamlarni aldash orqali mo'may daromad orttirishga kirishadi. Dastavval N.Murodova bilan restoranda uchrashib, suhbat chog'ida tanishining 30 gramli tilla zanjirini sotib berishga ko'ndiradi va uni qo'lga kiritadi. Vaqt o'tib, S.Boqiyeva tilla buyumni 23 million so'mga sotadi. Biroq pulning bor-yo'g'i 12 million so'mini taqinchoq egasiga berib, qolgan qismini o'z ehtiyojlariga sarflab yuboradi va shu bilan g'oyib bo'ladi.

Birinchi «omad» er-xotinni yanada qattiqroq vasvasaga

soladi. Firibgarlik yo'li bilan topilgan pullar yeb-ichilib sarflangach, ular yangi «o'lja» izlashga tushishadi. Navbatdagi jabrlanuvchi O.Mahamovning eski tanishlaridan biri bo'ladi. Bu safar er xotini saraton kasalligiga chalin-ganini va operatsiya uchun katta miqdorda pul zarurligini aytadi. Ishonchga kirgani uchun N.Anorova unga 85 million so'm naqd pul va qiymati 22 million so'mga teng bo'lgan tilla taqinchoqlarini qarz tariqasida beradi...

Shundan keyin ham ular asosan zargarlik buyumlari savdosi bilan shug'ullanuvchi tanishlarini chuv tushirishda davom etishadi. Shu tariqa, jami 8 nafar fuqaroning



soddaligidan foydalanib, 450 million so'mdan ortiq pul mablag'ini o'zlashtirishadi.

Har qanday qing'ir ishning oxiri voy. Aldangan fuqarolar tomonidan Termiz shahar IIBga ariza bilan murojaat qilingach, jinoyat ishi qo'zg'atildi. Olib borilgan

surishtiruv va tergov harakatlari davomida barcha dalillar to'planib, S.Boqiyeva va uning turmush o'rtog'i tomonidan sodir etilgan qing'ir ishlar to'liq fosh etildi. Natijada ular qonun oldida javobgarlikka tortildi.

Ishonch – eng katta boylik. Uni suiiste'mol qilish esa nafaqat jinoyat, balki insoniylikka xiyonat ham. Shunday ekan, yurtdoshlarimiz har qanday iltimos yoki «qiyin ahvol» haqidagi da'volarga nisbatan hushyor bo'lishi, qarz yoki qimmatbaho buyumlarni o'zgalarga topshirishdan oldin obdan o'ylab ko'rishlari lozim.

**Muhayyo QUDRATOVA,**  
katta leytenant.  
**Feruza RAHMONQULOVA,**  
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.



## Mahalla tinch — yurt tinch

# «ULAR – MENING YAQINLARIM»

Xorazm viloyati Gurlan tumani IIB Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi profilaktika inspektori, kapitan Xursandbek Uskinov ayni paytda «Paxtachi» mahallasida xizmat olib boradi. Mahalla tinchligi va jamoat xavfsizligini ta'minlash bilan birga fuqarolar taqdiriga daxldor har bir ishga o'z munosabatini bildiradi.



– Mahallada 3350 nafar fuqaro istiqomat qiladi. Ular menga yaqinlarimdek bo'lib qolgan. Har kuni ertalab mahalla yettiligining boshqa a'zolari bilan birgalikda notinch, nizoli oilalar, yakka-yolg'iz hamda spirtli ichimlikka ruju qo'ygan fuqarolarning hol-ahvolini o'rganamiz, – deydi inspektor.

– Profilaktika inspektori Xursandbek Uskinov fuqarolarning har bir murojaatiga alohida e'tibor qaratadi. So'ralgan masalani ijobiy hal etish choralarini ko'radi. Muqaddam sudlangan va profilaktik hisobda turgan shaxslar bilan suhbat o'tkazib, qayta huquqbuzarlik sodir etsa, qilmishining oqibati yomon, jazosi og'ir bo'lishini tushuntiradi. Aybini, xatosini tan olgisi kelmaydiganlarga nisbatan qonuniy chora ko'radi. Shuningdek, xorijga uzoq muddatga ketgan yoki qaytib kelgan fuqarolarning uylariga borib, xonadondagi vaziyatni o'rganadi. Ayrimlariga yordam berish bo'yicha bizga ham murojaat qiladi, – deydi MFY raisi Umrboy Adambayev. – So'nggi paytlarda kiberjinoyatlar soni oshayotgani barchamizga sir bo'lmay qoldi. Albatta bu holat, asosan, ayrim fuqarolarning soddaligi, ishonuvchanligi, ayrimlarning tez boyib ketish istagida firibgarlarga ishonib qolishi bilan

bog'liq bo'lmoqda. Shu sabab, bu borada mahallada tushuntirish va ogohlantirish ishlarini muntazam olib boryapti.

Bandlik – jinoyatning oldini olishda muhim omil. Shu bois, mahalladagi ijtimoiy profilaktika ishlarida hokim yordamchisi Ergash O'razbayevni ham tinch qo'ymaydi. Ishsiz fuqarolarga ish topib berishda hokimiyat orqali yordam berishini so'raydi.

Mahallada oilaviy munosabatlarni mustahkamlash borasida xotin-qizlar faoli Nilufar Djeyanbayevaga ham taqdimnomalar chiqaradi. Ayniqsa, ajrim yoqasida turgan, nizoli oilalar bo'yicha ma'lumotlar to'plab, ular bilan birgalikda profilaktik suhbat o'tkazishga chaqiradi. Bunday kuyunchakligi natijasida o'tgan yili mahallada uch oila ajrimdan saqlab qolindi.

Har bir xodim o'z xizmat vazifasi va qasamyodiga sodiq bo'lib, vijdonan ishlasa, mahalladagi ko'makka muhtoj fuqarolarga beg'araz yordam ko'rsatsa, to'g'ri maslahat bersa, albatta uni aholi hurmat qiladi. X.Uskinov mana shunday xodimlardan biri, desak mubolag'a bo'lmaydi.

**Nilufar JABBOROVA,**  
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.


## Tayoqning ikki uchi

Qodirqul To'rayev (ism-shariflar o'zgartirildi) muqaddam bir necha marta sudlangan. Oxirgi marotaba firibgarlik jinoyatini sodir etgani uchun jinoyat ishlari bo'yicha O'rta Chirchiq tuman sudi tomonidan 3,5 yil muddatga axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan va probatsiya hisobida turgan edi. Ammo u imkoniyatdan to'g'ri xulosa chiqarmay, yana jinoiy faoliyatini davom ettiradi.

# FIRIB ESHIGIDAN KIRIB...



# chiqolmay qolganlar



G'ayriqonuniy ravishda moddiy manfaat orttirishning hadisini olgan Qodirqul bu safar tanishi M. Saidovaga qarmoq tashlaydi. Toshkent shahar Sergeli tumani hokimiyatida mansabdor lavozimda ishlovchi tanishlari orqali tuman hokimiyati balansida bo'lgan uy-joylardan birini 6000 AQSH dollariga olib berishni va'da qilib, pora berishga qiziqtiradi. Shardan uy olish qiyinligini bilgan, osongina arzon uyli bo'lib qolishdan sevinib ketgan M. Saidova darrov bu «xushxabar»ni akasiga aytadi.

Aka ham singlisining arziyas pulga uy-joyli bo'lib qolishini o'ylab, Qodirqul bilan telefonda gaplashib, uning kimligini ham so'rab-surishtirmasdan, pul qidirishga tushadi. Manfaat orasiga yashiringan qarmoq ish beradi. M. Saidovanning akasi Ikrom Ismoilov so'ralgan pulning ikki mingini Qodirqul aytgan joy – Zangiota tumanida joylashgan «Erkin» savdo majmuasi oldiga olib kelib beradi. G'ayriqonuniy moddiy manfaat topishga ustasi farang bo'lib ketgan Qodirqul esa pulni olgach, shartta telefonini o'chirib, aloqani uzadi. Qimmat behikmat, arzon beillat bo'lmasligini

chuv tushganidan so'ng anglagan I. Ismoilov ichki ishlar organlariga ariza bilan murojaat qiladi.

Xuddi Qodirqul singari muqaddam bir necha marotaba jinoyat sodir qilgan, hozirda esa probatsiya hisobida turgan fuqaro Odil Haydarov ham firibgarligini davom ettirib, tanishi Fazilat Hakimovanning Majburiy ijro byurosidan 35 million so'mlik qarzdorligini yuqori idoralarda tanishlari orqali so'ndirib berishni va'da qilib, xizmati evaziga 5 million 200 ming so'm pulni plastik kartasiga tushirib oladi.

– Bunday firibgarlik holatlari keyingi paytda tez-tez uchrayapti. Bu ishlarda aybni faqat firibgarlarga yuklash masalaga bir taraflama yondashish bo'ladi. Negaki, har ikki holatda ham qaysidir jihatdan pora beruvchilarning o'z manfaati evaziga aldangani ko'rinib turibdi. Shu bois tergov jarayonida barcha holatlar oydinlashtirilib, materiallar qonuniy chora ko'rish uchun sudga yuborildi, – deydi Zangiota tumani IIB huzuridagi Tergov bo'limi tergovchisi, podpolkovnik Xurshid O'rinov.

**Shuhrat RO'ZIYEV,**  
o'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.



## Yangi O'zbekiston iftixorlari

# O'ZBEGIMNING NODIR-U JAVOHIRLARI

## shaxmat maktabimiz dunyoda tengsiz ekanini yana bir bor isbotladi

Ha, xuddi shunday! Kuni kecha shaxmatchimiz Nodirbek Abdusattorov dunyodagi eng nufuzli turnirlardan biri – «Tata Steel Chess – 2026» g'olibiga aylandi. Yanada quvonarlisi shuki, shaxmat olamining «Uimbloni» deb ta'riflanuvchi ushbu turnirda ikkinchi o'rin ham bizning vakilimizga, xalqaro grossmeyster Javohir Sindarovga nasib etdi.

Niderlandiyaning Veyk-an-Zeye shahrida o'tkazib kelinadigan an'anaviy turnir davomida N. Abdusattorov barcha raqiblariga qarshi partiyalarda barqaror va mazmunli o'yin namoyish etdi. Natijada yakuniy tur oldidan u jadvalda yakka peshqadamlik qildi. Hal qiluvchi bahsda esa hindistonlik grossmeyster Arjun Erigaysini mag'lubiyatga uchratdi.

Yakunda shaxmatchimiz mavjud 13 imkoniyatdan 9 ochko jamg'ardi

(6 g'alaba, 6 durang va 1 mag'lubiyat). «Qanchalik baxtli ekanimni so'z bilan ta'riflab berolmayman. Bu juda uzoq yo'l bo'ldi. ...Nihoyat, ushbu turnirda g'alaba qozonishga muvaffaq bo'ldim. Bu faoliyatimdagi eng muhim g'alabalardan biri», – dedi hamyurtimiz taassurotlari bilan o'rtoqlasharkan.

O'tgan yilning oxirida Jahon kubogining eng yosh sohibiga aylangan Javohir Sindarov 13 imkoniyat-



dan 8,5 ochko jamg'ardi (4 g'alaba va 9 durang). E'tiborlisi, u biror marta mag'lubiyatga uchramagan yagona ishtirokchiga aylandi.

1937-yildan beri o'tkazib kelina-yotgan, dunyoning eng qadimiy va kuchli shaxmat bellashuvlaridan biri sanalgan Veyk-an-Zeye turniridagi muvaffaqiyatli ishtirokdan so'ng onlayn reytingda Nodirbek Abdusattorov yana 5-o'ringa qaytdi, Javohir Sindarov 11-o'ringa ko'tarildi.

Faxr bilan aytish mumkinki, Niderlandiyadagi g'olibona yurishlar

Nodirbek va Javohir uchun katta mavsumning boshlanishi, xolos. Endi har ikki shaxmatchimiz yana bir yirik turnir – rapid bo'yicha «FIDE Freestyle Chess World Championship – 2026» musobaqasida qatnashadi. Sovrin jamg'armasi 300 ming AQSH dollarini tashkil etuvchi turnir 13–15-fevral kunlari Germaniyaning Vanjel shahrida bo'lib o'tadi. Unda jami 8 nafar eng sara shaxmatchi jahon chempionligi uchun bahs olib boradi.

**O'z muxbirimiz.**

### Kechinma

**Q**ish – qahraton, ammo uning bag'rida ajib iliqlik yashirin. Qor qoplagan ko'chalarda yurish, oyoq ostida qirsillagan oq qoplam ovozi tinglash kishini bolalik xotiralariga eltadi. Qachondir qorbobo yasab, qo'llarimiz muzlab qolganicha kulib turgan damlar, qor bo'ronlari orasida iliq uyga shoshgan kechalar – bularning barchasi qishni qalbimizga yaqin qiladi.

Qor – qishning eng go'zal bezagi. U yerdagi har bir nuqsonni yashirib, olamni poklik libosiga burkaydi. Daraxt shoxlarida osilib qolgan muz zarralari qishning go'yo zargarona ishlangan zeb-ziynatidek yarqiraydi. Quyosh nurlari qor ustida aks etar ekan, butun atrofda beqiyos yorug'lik hukm suradi.

Qish insonni o'yga toldiradigan fasl. Tabiat sukutga cho'mgan pal-lada, qalb ham shovqin-surondan



xoli bo'lishni istaydi. Qor yog'ayotgan damda deraza yonida turib, uzoqqa tikilish, o'zing bilan suhbat qurish naqadar maroqli. Har bir qor parchasi o'tib borayotgan kunlarni,

har bir muzdek nafas esa hayotning qadrini eslatadi.

Bu fasl mehr-oqibatni ko'proq his qildirishga qodir. Sovuq havo odamlarni bir-biriga yaqinlashtira-

di, qaynoq choy ustida yig'ilishga, samimiy suhbat qurishga undaydi.

Qish – sabr fasli. U tabiatni dam oldiribgina qolmay, insonni ham shoshmaslikka, o'tmishdan xulosa chiqarib, har bir lahzani qadrlashga o'rgatadi. Qor erta yog'sa ham, kech yog'sa ham, baribir, o'z vaqtida yerni baraka bilan to'ldiradi. Xuddi shunday, hayotda ham har bir narsaning o'z mavsumi, o'z pallasi borligini qish bizga beovoz uqtirayotgandek bo'ladi.

Qish – faqat sovuq bo'ronlar emas, u – poklik, sukut, mehr va iliq xotiralar fasli. Oppoq qor bag'rida inson qalbi ham tozalanib, yangi orzularga yo'l ochadi. Qishning haqiqiy tarovati ana shu sukut ichidagi ilqlikda, oq manzaralar bag'rida uyg'ongan umidlarda yashaydi.

**Feruza RAHMONQULOVA.**

#### MUASSIS: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

**Bosh muharrir**  
polkovnik  
Bernora SADIKOVA

**Bosh muharrir o'rinbosarlari**  
podpolkovnik  
Azizjon FAYZIYEV  
mayor  
Aziza BOHODIROVA

**Mas'ul muharrir**  
Erkin SATTOROV

**Veb-dizaynerlar**  
Zokir BOLTAYEV  
Ilhom JUMANOV  
Akbar BOLTAYEV

**Navbatchilar**  
Bobomurod TOSHEV  
Yuliya KIM

#### TELEFONLAR:

71-231-33-88;

**Obuna masalalari bo'yicha:**  
71-231-38-74;  
97-420-89-24

**Web-site:** www.postda.uz  
**E-mail:** info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r  
23402000300100001010.  
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v  
460010860262877031101179003  
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan  
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Manzili: 100070, Toshkent shahri, Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 291.  
Bosilish – ofset usulida.  
Bichimi – A3.  
Hajmi – 6 bosma taboq.  
48475 nusxada chop etildi.

**Obuna raqamlari:**  
Yakka tartibda – 180.  
Tashkilotlar uchun – 366.  
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.  
Bosishga topshirildi – 21.00.  
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Korxona manzili: 100206  
Yunusobod tumani,  
Yangishahar ko'chasi 1<sup>A</sup>-uy.